



O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MINTAQAVIY) MARKAZI

# **DINSHUNOSLIK FANINING RIVOJLANISHIDA MANBASHUNOSLIK MASALASI**

MODULI BO'YICHA  
O'QUV- USLUBIY  
MAJMUA

**2024**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMIV - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIV UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MINTAQAVIV) MARKAZI**

**“Dinshunoslik fanining rivojlanishida manbashunoslik masalasi ”  
moduli bo‘yicha**

**O‘ Q U V – U S L U B I Y M A J M U A**

**Toshkent – 2024**

**Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** N.Abdullayeva – falsafa fanlari doktori, prof.v.b.

**Taqrizchi:** B.Jalilov. O‘zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

***O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024-yil 20-yanvardagi № 4/2 -sonli bayonnomasi)***

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	18
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	21
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	56
V. KEYSLAR BANKI.....	63
VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....	64
VII. GLOSSARIY.....	65
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	68

# I. ISHCHI DASTUR

## KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, biologiya fanini o‘qitishda IT (information texnologiyalar) ma’lumot materiallaridan foydalanish, biologik makromolekulalar va ularning ahamiyatini ochib berish, organizmda energiya almashinuv jarayonlarini tahlil etish va baholash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

## **Kursning maqsadi va vazifalari**

Oliy ta'lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“**Dinshunoslik**” yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;

- o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish;

“**Dinshunoslik**” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

### **Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

•2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o'rni va ahamiyatini;

•O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;

•Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;

•O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;

•O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlarini;

•Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;

•Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura

mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejaları, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni, o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;

- ta'lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta'lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- jahonda oliy ta'lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo'nalishlarni;

• zamonaviy ta'limning global trendlarini;

• inson kapitalining iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta'limning yoshdagi ahamiyatini;

• oliy ta'limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;

- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko'pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;

- universitetlarning zamonaviy modellarini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo'nalishlarini;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
- innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini;

- kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
- kasbiy kompetensiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini;
- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
- pedagogik texnikani shakllantirish yo'llarini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, reflektiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini;

• kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;

• kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to'siqlarni yechishda, to'g'ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;

- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;

- ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni;
- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;

- baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
- dunyo dinlari tarixini o'rganishda zamonaviy qarashlarni;
- dunyo dinlariga xos umumiy va xususiy jihatlarni;
- dunyo dinlarini mintaqaviy xususiyatlariga qarab o'rganishning ahamiyatini;
- din falsafasi, sosiologiyasi, psixologiyasini;
- diniy mutaassiblikka qarshi O'zbekistonda keng qamrovli diniy ma'rifat ishlarining amalga oshirilayotganligini;

- hozirgi kunda davlat va din munosabatlariga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan chiqarilayotgan farmonlar va ularni ijrosini;

- diniy manbalar: muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlarni;
- diniy manbalarning tadqiq usullarini;
- islom manbashunosligi masalalarini;
- Qur'on tafsirlari, Hadislarga yozilgan sharhlarni;
- nashr etilgan dinga doir yangi manbaalarni o'rganish masalasini **bilishi** kerak.

### **Tinglovchi:**

- 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalish va maqsadlarini tahlil etish va baholash;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;

- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;

- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;

- masofiviy ta'lim platformalari uchun video kontent yaratish;

- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;

- raqamli ta'lim resurslari sifatini baholash;

- OTMlarni reyting bo'yicha ranjirlash;

- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;

- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;

- tadbirkorlik universitetiga o'tish uchun zarur bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash;

- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o'tish borasidagi



muammolarni aniqlash;

- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potentsiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;

- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;

- o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyatini yoritib berish;

- tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;

- kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;

- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;

- talabalarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;

- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ni nazorat qilish;

- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;

- dini antropologik o‘rganish;

- urug‘-qabila dinlarini o‘rganishda arxeologik manbalarning ahamiyatini ochib berish;

- Jahon dinlarining qadimiy va hozirgi kundagi jihatlari orasidagi farqlarni ajratish;

- diniy manbalarni bag‘rikenglik jihatidan o‘rganish;

- Jahon dinlari manbalarini tadqiq etishda diniy sharhlarning o‘rnini tahlil etish;

- yahudiylik va xristianlik manbalarini o‘rganishda Abu Rayhon Beruniy asarlarining o‘rnini ochib berish *ko‘nikmalariga* ega bo‘lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;

- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;

- o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;

- an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;

- onlayn mashg'ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o'zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollari tahlil etish;
- innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
- ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni tahlil etish va baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
- diniy tadqiq etishda fenomenologik yondashuvlarni baholash;
- diniy mutaassiblikka qarshi diniy bag'rikenglikning diniy manbaviy asoslarini o'zlashtirish;
- diniy manbalarning tadqiq usullaridan foydalanish;
- Qur'onshunoslik va hadisshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlarni olib borish;
- nashr etilgan dinga doir yangi manbaalardan foydalanish *malakalariga*

ega bo‘lishi zarur.

**Tinglovchi:**

- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish:
  - O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
  - Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta’minlash;
  - raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
  - raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;
  - raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
  - universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
  - OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo‘llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
  - «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo‘llash;
  - professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
  - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
  - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
  - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
  - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
  - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
  - talabalarning ta’limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
  - Dunyo dinlari tarixini o‘rganishda tarixiy manbalarning o‘rnini tahlil etish;
  - O‘zbekistonda islomiy qadriyatlarni ijtimoiy xayotning turli

jabhalariga tadbiq etish jarayonlarini baholash;

- diniy mutaassiblikka qarshi O‘zbekistonda keng qamrovli diniy ma’rifat ishlarining amalga oshirilayotganligining amaliy ahamiyatini yoritib berish;
- ibtidoiy, urug‘-qabila dinlarini o‘rganishga oid manbalarni o‘zlashtirish;
- O‘zbekistonda hadisshunoslikni ((Imom Buxoriy halqaro markazi, Samarqand), Iso Termiziy halqaro markazi, Termiz)), fiqx ilmi (Marg‘inoniy fiqxshunoslik maktabi), tasavvuf ilmi (Naqshbandiy tasavvuf maktabi) diniy-ma’rifiy markazlarining tashkil topishi va ularda olib borilayotgan tadqiqotlarni amaliy ahamiyatini yoritib berish *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

- Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.
- Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:
  - ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
  - o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Dunyo dinlari tarixini o‘rganishda zamonaviy qarashlar” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari”, “Oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” “Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari”, “Dinshunoslik fanining rivojlanishida manbashunoslik masalasi.” mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida genom tadqiq etishga, katta ma’lumotlar va nukleotid va oqsil ketma-ketliklar ma’lumotlar bazasi tizimlaridan foydalanish va amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

**“Dinshunoslik fanini rivojlanishida manbashunoslik masalasi”**  
modulining soatlar bo‘yicha taqsimoti

№	Modul mavzulari	Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
			Jami	jumladan	
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot
1.	Diniy manbalar: muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlar.	4	4	2	2
2.	Jahon dinlari manbalarini tadqiq etishda diniy sharhlarning o‘rni.	4	4	2	2
3.	Qur‘onshunoslik va hadisshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlar.	6	6	2	4
4.	O‘zbekistonda hadisshunoslik ((Imom Buxoriy halqaro markazi, Samarqand), Iso Termiziy halqaro markazi, Termiz)) diniy-ma‘rifiy markazlarining tashkil topishi va ularda olib borilayotgan tadqiqotlar.	4	4	2	2
<b>Jami: 18 soat</b>		<b>18</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>

**NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu: Diniy manbalar: muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlar.**

Diniy manbalar: muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlar. Diniy manbalarning tadqiq usullari. Diniy manbalarni bag‘rikenglik jihatidan o‘rganish.

**2-mavzu: Jahon dinlari manbalarini tadqiq etishda diniy sharhlarning o‘rni.**

Jahon dinlari manbalarini tadqiq etishda diniy sharhlarning o‘rni. Yahudiylik va xristianlik manbalarini o‘rganishda Abu Rayhon Beruniy asarlarining o‘rni. Islom manbashunosligi masalalari.

**3-mavzu: Qur‘onshunoslik va hadisshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlar.**

Qur‘onshunoslik va hadisshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlar. Qur‘on tafsirlari. Hadislarga yozilgan sharhlar. Nashr etilgan dinga doir yangi manbaalarni o‘rganish masalasi.

**4-mavzu: O‘zbekistonda hadisshunoslikni ((Imom Buxoriy halqaro markazi, Samarqand), Iso Termiziy halqaro markazi, Termiz)), fiqh ilmi (Marg‘inoniy fiqxshunoslik maktabi), tasavvuf ilmi (Naqshbandiy tasavvuf maktabi) diniy-ma‘rifiy markazlarining tashkil topishi va ularda olib borilayotgan tadqiqotlar.**

O‘zbekistonda hadisshunoslikni ((Imom Buxoriy halqaro markazi, Samarqand), Iso Termiziy halqaro markazi, Termiz)), fiqh ilmi (Marg‘inoniy fiqxshunoslik maktabi), tasavvuf ilmi (Naqshbandiy tasavvuf maktabi) diniy-ma‘rifiy markazlarining tashkil topishi va ularda olib borilayotgan tadqiqotlar.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu: Diniy manbalar: muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlar.**

Diniy manbalar turlari. Diniy manbalarning xronologiyasi. Epigrafikada muqaddas yozuvlar masalasi. Muqaddas yozuvlar va ularni tadqiq qilish. A.Dyupperon, G.Shlimman, D.Shampaleonlarning tarixiy manbashunoslik ilmini rivojlantirishga qo‘shgan xissalari.

### **2-mavzu: Jahon dinlari manbalarini tadqiq etishda diniy sharhlarning o‘rni.**

Diniy manbalarni sharxlash tushunchasi. Dunyo dinlari muqaddas manbalarini sharxlash metodologiyasi. Xristianlikda Injilni sharxlash masalasi ilmiy talqini. Buddaviylikda Tripitaka va boshqa muqaddas manbalarni sharxlash usullari va yondashuvlari.

### **3-mavzu: Qur‘onshunoslik va hadisshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlar.**

Xadisshunoslik- tarixiy manbashunoslikning tarixiy bo‘lagi sifatida. Xadis ilmini rivojlanishida yurtimiz muxaddislarinin xizmati. Xadis ilmi manbalarini tasniflash. Al-jome as-Sahih asarining xadis ilmi manbashunosligidagi ahamiyati.

**4-mavzu: O‘zbekistonda hadisshunoslikni ((Imom Buxoriy halqaro markazi, Samarqand), Iso Termiziy halqaro markazi, Termiz)), fiqh ilmi (Marg‘inoniy fiqxshunoslik maktabi), tasavvuf ilmi (Naqshbandiy tasavvuf maktabi) diniy-ma‘rifiy markazlarining tashkil topishi va ularda olib borilayotgan tadqiqotlar.**

Fiqh ilmining ahamiyati. «Usulul fiqh» ilmi tarixi. Marg‘inoniy fiqxshunoslik maktabining tashkil etilishi va uning faoliyati. Naqshbandiy tasavvuf maktabi. Diniy-ma‘rifiy markazlarining tashkil topishi va ularda olib borilayotgan tadqiqotlar.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 592 b.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: “O‘zbekiston”. 2011. - 440 b

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4391- sonli Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5763-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi

“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-sonli Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 15 sentyabrdagi PQ-3276-sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli Qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-sonli Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

22. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti. 2013, 2016. – 279 b.

23. Kreativnaya pedagogika. Metodologiya, teoriya, praktika. / pod. red. Popova V.V., Kruglova Yu.G.-3-e izd.–M.: “BINOM. Laboratoriya znaniy”. 2012. – 319 s.

24. Karimova V.A., Zaynutdinova M.B. Информационные системы.- T.: Aloqachi. 2017. - 256 str.

25. Информационные технологии в педагогическом образовании / Kiselev G.M., Bochkova R.V. - 2-e izd., pererab. i dop. - M.: Dashkov I.K. 2018. - 304 s.

26. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooks Account 2015. - 134 pp.

27. Paul Kim. Massive Open Online Courses: The MOOC Revolution. Routledge; 1 edition 2014. - 176 pp.

28. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 edition 2015. - 350 pp.



29. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Vook 1,2.
30. Karimova V.A., Zaynutdinova M.B., Nazirova E.Sh., Sadikova Sh.Sh. Tizimli tahlil asoslari.– T.: “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2014. – 192 b.
31. Yusupbekov N.R., Aliev R.A., Aliev R.R., Yusupbekov A.N. Boshqarishning intellectual tizimlari va qaror qabul qilish. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” DIN. 2015. – 572 b.
32. Ochildiev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.
33. Tashanov A. Mutassiblikning ko‘rinishlari va oqibatlari. –Toshkent: Akademiya, 2011. -32 b.
34. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. Uslubiy qo‘llanma. - T.: Toshkent Islom universiteti. 2013.
35. Abdusamedov A.E., M.I.Xo‘jaev, G.A.Saparova, Sh.Qarshiev. Dinshunoslik. Uslubiy qo‘llanma. –T.: Istiqlol nuri. 2013.
36. Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar. –T., Turon zamin ziyo, 2015. 400 b.
37. Dunyo dinlari tarixi / Tuzuvchilar: S.Agzamxodjaev, D.Rahimjonov, N.Nurmuhamedov va b. – T.: ToshDShI, 2011. – 262 b.
38. Islom va hozirgi zamon / O‘quv qo‘llanma.– T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. - 207b.

#### **IV. Internet saytlar**

39. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
40. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
41. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
42. [http://www. alreligion. about.com](http://www.alreligion.about.com)
43. [http://www. islam.ru](http://www.islam.ru)
44. <http://www.glossarist.com>
45. [www.infoxs.uz](http://www.infoxs.uz)
46. [www.turkistonsarkor.uz](http://www.turkistonsarkor.uz)

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

### «FSMU»metodi


**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

-qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;

-har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

-ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhviy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna:**“Dinlarni o‘rganishda samarali uslublardan birini taqaviy yondashuv” fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

Dinning mohiyati nima?

### “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod qatnashchilarning yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash maqsadida qo‘llaniladi.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

□ ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

□ o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual tartibda);

□ o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;

□ belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

□ har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Mavzuga oid tushunchalar tahlili”

<b>Tushuncha</b>	<b>Hal qiluvchi kuch</b>	<b>Samarasi nimada aks etadi</b>	<b>YOndashuvni ilgari surgan olimlar</b>
<i>Qiyosiy dinshunoslik</i>			
<i>Vijdon erkinligi</i>			
<i>Din sosiologiyasi</i>			
<i>Totem</i>			

**Izoh:** Bo‘sh ustunlarga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

□ o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

□ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

□ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1-</b>	<b>2-</b>
“V” – <i>tanishma’lumot.</i>		
“?” – <i>mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak</i>		
“+” – <i>bu ma’lumot men uchun yangilik</i>		
“–” – <i>bu fikr yoqimazkur ma’lumotga qarshiman?</i>		

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

## “Bumerang” texnologiyasi

**Maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

### **Amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni 5 daqika davomida sinchiklab o‘rganish talab etiladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi guruh a’zolarini o‘qilgan ma’lumot haqida fikr almashinish imkoniyatini beradi. Bu vazifa uchun 5 daqika vaqt beriladi.

3. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat boshqa kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarining xar biri o‘qigan ma’lumot haqida fikr almashinish imkoniyatini beradi. Bu vazifa uchun 10 daqika vaqt beriladi.

4. Barcha dastlab shakllangan guruxlarga ishtirokchilar qaytadi va fikr almashingan ma’lumot yuzasidan boshqa guruhlarga berish uchun savol shakllantiradi.

5. Har bir guruxdan 1 kishi savol beradi va to‘g‘ri javob uchun 1-3 gacha ball qo‘yiladi.

6. Trener-o‘qituvchi barcha guruhlarni to‘plagan ballarni umumlashtirib, g‘olib guruhni e’lon qiladi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**“Bumerang” texnologiyasi asosida vazifa:** Olingan materialni mazmunini tushunib olishga xarakat kiling, so‘ng guruhda muxokama qiling

<b>1- guruxgavazifa</b>	<p>Multiskript bu axborot uzatishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, bir tomondan katta hajmdagi video materiallar bilan ishlashni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan o‘z ichiga matn, audio va video kabi bir qancha mediaviy formatlarni oladi Bizni qiziqtirgan video tasma fragmenti hamda bu fragmentga tegshli transkriptni tez vaqtda aniqlikda tanlab olish mumkin. Multi skript o‘z ichiga uchta blokni oladi–pleer, “stenogramma” va “mazmun”. Video materialni ko‘rish uchun pleer tagida joylashgan “Play” piktogrammasini bosish kerak. Video tasmaning bizni qiziqtirgan fragmentini ko‘rishni uch yo‘l bilan amalga oshirsa bo‘ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- pleer tagida joylashgan kursor yordamida;</li><li>- “Stenogramma” blokida matn fragmentini bosib;</li></ul>
-------------------------	--

2- guruxgavazifa	<p><i>Slayd-shou. Fotolentadan shunisi bilan farq qiladiki, unda Suratlar fotofilm rejimida mustaqil ravishda varaqlanadi. Suratlar ssenariy asosidagi ketma-ketlikda qo'yiladi. Slayd-shou ovoz bilan birgalikda audio-illyustratsiya elementlarini, ya'ni audiositatalar, shovqin, ovozli effektlar, axborot bilan</i></p> <p><i>To'yintirilgan matnni o'z ichiga olishi mumkin. Vizual ketma-ketlik ixtiyoriy. Ular voqea joyidan olingan suratlar yoki arxiv kadrlari, hujjatlar, xaritalar, skrinshotlar, karikaturala rvah.k. bo'lishi mumkin. Butexnologiya reportaj, ocherk, ba'zida yangiliklarni illyustratsiya qilish uchun kerak.</i></p>
3- guruxgavazifa	<p><i>Audi oslayd-shou – zamonaviy jurnalistikaning Multimediyaviyligi sabab yaratilgan foto illyustratsiyalashtirishning sintetik varianti bo'lib, mustaqil janrga aylandi .Bu tushuncha 2000 yillarda paydo bo'lgan.</i></p> <p><i>Ba'zi fotograflar fotoreportajlarining taqdimoti uchun slayd-shoulardan foydalanib, unga tadbird ayozi olingan ovozni qo'llaganlar. Keyinchalik bu usuldan katta nashriyotlar foydalana boshladilar. Audioslayd-shou tanlab olingan fotosuratlar va ularga qo'yilgan ovozdan iborat. Ovoz sifatida musiqiy kompozisiya yoki muallif o'qigan matn bo'lishi mumkin. Mazmunning asosi bo'lib, tashqi shovqin, ovozli effekt, audio sitata yordamida berilgan hikoya xizmat qilishi mumkin. Vizual qator sifatida voqea sodir bo'lgan joydan olingan suratlar, yoki arxiv kadrlari, hujjatlar, karikaturalar va h.k. olinishi mumkin.</i></p>
4- guruxgavazifa	<p><i>- Panoramali fotografiya – obzor burchagi katta bo'lgan fotografiyadir. Ommaviy voqealarni yoritishda, ob'ektlarni, peyzaj, joylarni itasvirga olishda ularning masshtabini ko'rsatishda aktualdir.</i></p> <p><i>- Interaktiv foto–shunday fotografiyaki, unga maxsus metkalar qo'yilgan bo'lib, ularni bosganda matn, video, ssılka, ijtimoiy to'rlarning statuslari chiqadi.</i></p>

### III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

#### 1-MAVZU: Diniy manbalar: muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlar

##### Reja:

1. «Muqaddas manba» tushunchasi va unga dinlardagi munosabatlar
2. Dinlarning muqaddas manbalariga umumiy tavsif
3. Muqaddas manbalarga oid tushunchalar

**1. «Muqaddas manba»** tushunchasi va unga dinlardagi munosabatlar. Diniy matnlar (manbalar, muqaddas yozuv, muqaddas kitob) — bu, turli dinlarda muqaddas sifatida qaraluvchi va ularning diniy an’analarida markaziy o‘rin egallovchi matnlardir. Ko‘plab din, diniy-falsafiy ta’limot va harakatlar o‘z muqaddas manbalari vahiy asosida nozil bo‘lgan ilohiy kitob ekanligiga e’tiqod qiladilar. Diniy matnlarni tavsiflashda faqat yozma matnlar, og‘zaki an’analar nazarda tutilmaydi. Odatda diniy matnlar g‘ayritabiiy voqea-hodisa va xabarlarini o‘zida namoyon qiladi. Diniy matnlarda diniy bilimlarni avloddan-avlodga o‘tishida izchillik bo‘lishi juda muhimdir.

Xususiyat. Tarixiy, mifologik yoki boshqa bir ko‘rinishdagi diniy matn bo‘ladimi, albatta, u dunyoning yaralishi, uning diniy tuzilishi, ilk insonning yaratilishi va o‘tmish ajdodlar hayoti haqida hikoya qiladi. Diniy matnlarda muqaddas diniy urf-odat va marosimlar, xulq-atvor normalari va ijtimoiy munosabatlarini tartibga solib turuvchi qoidalar bayoni katta o‘rin egallaydi. Ba’zi diniy matnlar barchaga tushunarli, ba’zilari esa faqat muayyan dinning bilimdoni vositasida tushunib yetish mumkin. Ko‘pchilik dinlar o‘zlarining diniy matniarni o‘rganish va ularga turli o‘zgarishlar kirishini cheklash maqsadida maxsus qonun-qoidalar tizimini ishlab chiqqan. Diniy matnlar tarixi. Qadimgi Misr piramidalaridagi bitiklar miloddan avvalgi 3-ming yillikka (mil.av. 2400—2300) oidligiga ko‘ra ko‘hna diniy matnlardan biri sanaladi. Finikiya alifbosining dastlabki ko‘rinishi miloddan avvalgi birinchi ming yillikka tegishli Qadimgi Babil hukmdori Ahiram sarkofagi (qadimgi tosh tobut)dagi bitik hisoblanadi. Shuningdek, qadimgi Shumer madaniyatiga doir Gilgamesh dostoni (vujudga kelish tarixi miloddan avvalgi 2-ming yillik boshlariga to‘g‘ri keladi) turli mifologik obrazlarni qamrab olgani jihatidan ilk adabiy asarlardan biridir. Bundan tashqari, hinduiylikning asosiy manbasi vedalarning tarkibiy qismlaridan biri Rigveda miloddan avvalgi 1700—1100 yillar oralig‘ida yaratilgan, qolaversa, hanuz muomalada bo‘lgan ko‘hna diniy manba sifatida baholanadi. Shu bilan birga, Avesto gatlarining yaratilishi borasida ilmiy jamoatchilik orasida turli qarama-qarshi fikrlar (taxminan mil.av. 1-ming yillikning birinchi yarmi) mavjud bo‘lsa-da, mutaxassislar Avestoning eng qadimgi qismlari yozma shaklga keltirilmasdan ilgari og‘zaki holatda yanada qadimiyroq tarixga ega ekanligiga ishonch bildiradilar. Shuningdek, aksariyat olimlar Tavrotning yozma holatda shakllanishi ham bir necha asrlarni qamrab olganligini ta’kidlaydilar. XIX asr oxirlarida «Musoning besh kitobi» to‘rt asl mustaqil manbalarni jamlash orqali miloddan avvalgi 450-yilda yaratilgan, degan fikrni ilgari suruvchi isbot-dalilga ega gipotezalar negizida umumiy qarash mavjud edi (Yahve — mil.av. 900-y.; Elohim - mil.av. 800-y.; Ikkinchi qonun yozuvchilari - mil.av. 600-y.; Ruhoniylarga (priestly) oid manbalar - mil.av. 500-y.). Qarashlar. Muqaddas matnlarga munosabat turlichadir. Ba’zi dinlar muqaddas matnlarni keng va erkin ravishda oshkor qiladilar. Ba’zilari muqaddas sirlar ishonchli va ta’sirli tarzda saqlanib qolishi uchun ularni ommadan yashirishga urinadi. Ko‘p dinlar muqaddas matnlar miqdorini aniqlash, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi kabi holatlarni oldini olishga asosiy e’tibor qaratadi. Ba’zi dinlar esa o‘z muqaddas matnlariga nisbatan «Xudoning kalomi» sifatida yondashsalarida, ammo ular xudo tomonidan vahiy qilinganligi sababli o‘zgartirib bo‘lmas jihatiga

egaligi to'g'risida qarama-qarshi fikrlar bildiriladi. Matnlarni tarjima qilishga rasmiy ijozat olinadi, ammo asl muqaddas tilning qat'iy o'zgarmas ekanligiga e'tibor qaratiladi. Ba'zi dinlarda muqaddas matnlardan nusxa ko'chirish tekin va imtiyozli shaklda amalga oshiriladi, ba'zilarida esa bu borada to'lov va mualliflik huquqiga qat'iy rioya qilish talab qilinadi. Muqaddas matnlarga qo'yilgan turli belgilar ham ularning orasidagi muayyan farqlarni ko'rsatuvchi jihat sanaladi. Masalan, ba'zi muqaddas matnlarda ma'lumotlarni bir-biridan ajratuvchi sahifalarning raqami bo'lsa (sikkizm), ba'zilarida esa berilgan ma'lumotlarni ma'lum nom va raqamlar (Ibrohimiy dinlar - sura, oyat) namoyon bo'ladi.

**2. Dinlarning muqaddas manbalariga umumiy tavsif.** Yahudiylik va xristianlik. Yahudiylik diniy manbalarining asosiy qismi TaNaX tarkibiga kiradi. TaNaX yahudiylik muqaddas yozuvlarini ibroniycha (qadimiy yahudiy tili) nomlanishi sifatida qabul qilingan. Bu xristianlik muqaddas manbalari tarkibiga kirgan Qadimiy ahd» qismiga to'g'ri keladi. TaNaX so'zi yahudiylik muqaddas yozuvlarining uch asosiy qismi - Tavrot (Musoning besh kitobi), Neviim (payg'ambarlar) va Ketuviim (yozuvlar) so'zlarining bosh harflaridan kelib chiqqan. «TaNaX» atamasi dastlab yahudiylik ilohiyotining o'rta asarlarga oid asarlarida qollanilgan. TaNaX olam va odamning yaratilishi, ilohiy ahd va amrlar hamda yahudiy xalqi vujudga kelishidan Ikkinchi ibodatxona davri boshigacha bolgan tarixni tasvirlaydi. Yahudiylikka ko'ra, yahudiy xalqi insonlarning sarasi bolganlari sababidan bu kitoblar muqaddas hisoblanadi hamda TaNaX yahudiylik dini mohiyatini yoritishi bilan bir qatorda xristianlik va islom dinining shakllanishida asos bolib xizmat qilgan. TaNaX 24 kitobni o'z ichiga oladi. Kitoblar tarkibi «Qadimgi Ahd»ning protestantlik oqimiga oid variantiga mos kelib, faqat kitoblarning joylashuvida farq kuzatiladi. Lekin u boshqalardan ko'ra yaxshiroq tartibda ekanligini Bobil Talmudiga kelgan malumotlar tasdiqlaydi. «Qadimgi Ahd»ning katolik va pravoslaviya oqimlariga oid variantida esa Septuaginta kitobini ham qo'shimcha ravishda TaNaX tarkibiga kirganini ko'rish mumkin. TaNaX tarkibiy qismi. Yahudiylik muqaddas manbalari yozilish janri va vaqtiga qarab uch qismga bo'linadi:

1. Tavrot yoki Qonun (Musoning besh kitobi).
2. Neviim (payg'ambarlar). U o'z ichiga payg'ambarlar hayotidan tashqari bugungi kunda tarixiy solnoma deb yuritiladigan bir necha kitoblarni qamrab oladi. o'z navbatida «Neviim» kitobi ham ikki qismga ajraladi. Avvalgi payg'ambarlar kitoblari: Hsus Navin, «Hukmlar», Samuilning ikki kitobi va ikkita «Podshohlik» kitobi; Keyingi payg'ambarlar kitoblari: ular uchta katta payg'ambar — Isaiya, leramiya, lezekiil va 12 ta kichik payg'ambarlar kitoblaridan iborat.
3. «Ketuvim» qismi «Zabur», «Qissalar», lov kitobi, Solomonning «Qo'shiqlar qo'shiqlari», Ruf kitobi, «leramiya yig'isi» va solnomalar kitobini o'z ichiga oladi. Talmud. Yahudiylik diniy manbalaridan yana biri Talmuddir. Talmud (qad.yahud. «lameyd» - «o'rganish») - o'z tarkibida Mishna va Gemara (ya'ni, Galaxa — yahudiy dini qonunlari) ni jamlagan, yahudiylik diniy-axloqiy me'yorlari va qonunlaridan iborat ko'p jildlik to'plamdir. Ortodoksal yahudiylikning markaziy nuqtasida Muso payg'ambar Tur tog'ida bo'lgan paytda Tavrotning qabul qilib olganligiga ishonish yotadi. Yozma TaNaXdan farqli

o'laroq, yuqoridagi vaziyatning tafsiloti avloddan avlodga og'zaki ravishda o'tib kelishi natijasida Talmud shakllandi. «Galaxa» deb nomlangan diniy qonunlarga oid matniarni hisobga olmaganda, Talmud ko'p sonli mifologik va ertakona sujetlar, xalq afsonalari, tarixiy, tibbiy hamda sehrgarlik matnlarini qamrab olgan. Bularning barchasi «Agada» deb yuritiladi. Talmud tarkibiga kirgan asarlarning asosida TaNaXga, ayniqsa, uning birinchi qismi hisoblanmish Tavrotga yozilgan sharhiar yotadi. Talmud tarkibiy tuzilishi to'g'risida gapirganda, undagi matnlar turli tillarda ekanligi e'tiborni tortadi. Talmudning aksariyat qismi oromiy tilining turli shevalarida yozilgan bo'lib, ular qadimgi yahudiy so'zlari, iboralar va tushunchalar hamda Tavrotda uchraydigan lavhalardan olingan iqtiboslardan iborat. Shuningdek, Talmudda taxminan 2.500 ta qadimgi yunon va yaqin sharq tillari, ba'zida esa fors va lotin tillariga oid shevalardagi so'zlar uchraydi. Qadimdan Talmud mantlari sintantik elementlar bilan belgilanmagan bo'lib, abzatslarni bir-biridan ajratilmaganligi o'qishda murakkablik tug'dirgan, bu esa bir munozarani boshlanishi hamda tugash nuqtalarini aniqlashda qiyinchiliklarga olib kelgan. Talmud matnlarining mazmun-mohiyati haqida gapiradigan bolsak, unda yahudiylarning esxatologik (oxirat, qiyomat, marhumlarning tirilishi, u dunyodagi ajr va jazo to'g'risidagi) tasavvurlari o'z aksini topgan. Talmudda yahudiylikning marosimlari, urf-odatlarini aniq bayon etilgan bolib, ular 248 ta buyruq va 365 ta taqiqni o'z ichiga oladi. Shuningdek, unda qadimiy yahudiylar orasida din, firqa, guruhlar (saduqiylar, farziylar, yesseylar)ning kelib chiqishi haqida tarixiy malumotlar keltirilgan. Unda bayon etilgan diniy qonun-qoidalar, aqidalar, ko'rsatmalar yahudiy dinining asosini tashkil etadi. Xristian Bibliyasi Eski va Yangi Ahddan tashkil topgan. Eski Ahd tom ma'noda yahudiylik tarixiga oid ma'lumotlarni qamrab olgan bolishiga qaramay, Bibliya tarkibiga kiritilishi uni Iso Masih kelishi to'g'risida xabar beruvchi manba deb hisoblanishi bilan bog'liq. Ammo Eski Ahd tarkibidagi kitoblarni joylashuvi bo'yicha xristianlik yo'nalishlari o'rtasida muayyan farqlar kuzatiladi. Masalan, katolik va pravoslav yo'nalishda Eski Ahdning aksariyat ilova kitoblari (deutero-canonical books) Bibliya tarkibiga kiritilgan. Sulaymon donishmandligi, Tovit va Djudit qissasi, Makkebian tarixi kabi kitoblar shular jumlasidan. Bu kitoblar xristianlik dini vujudga kelishidan oldingi ikki asr mobaynida yahudiy aholi orasida iste'molda bo'lgan hamda diniy kitoblarning (scriptures) yunoncha tarjimasi - Septuaginta tarkibiga kiritilgan. Yangi Ahd ham ilk bor yunon tilida yozilgan, dastlabki xristian jamoalarining ko'pchiligini yunon tilida gaplashuvchilar tashkil qilgan, shu bois, ular Eski Ahd sifatida Septuagintadan foydalanishgan. Biroq, milodiy I asrda (90-y.) yahudiy ruhoniylari tomonidan mazkur kitoblar ibroniy diniy manbalar (The canon of Hebrew scriptures) sirasiga kirmasligi belgilab qo'yildi. Shuning uchun protestantlik yo'nalishi ilk namoyondalari Bibliya tarkibini belgilashda ibroniy ravvinik matnlar standartini asos qilib olib, Bibliyaning mahalliy tillarga tarjimasi (Lyuter tarjimasi yoki inglizcha qirol Iakov Bibliyasi)da yuqoridagi kitoblarni kiritmadilar. Protestantlik Bibliyasiga kirmagan ushbu qism Apokrifa (The Apocrypha) deb nomlandi. Keyinchalik Rim katolik cherkovi tomonidan Trent soborHda mazkur kitoblarni muqaddas diniy manba sifatidagi maqomi qayta tiklandi. Shuningdek, ular pravoslavlik yo'nalishi muqaddas kitoblari qatorida saqlanib qoldi. Qolaversa, hozirda bu kitoblar Bibliyaning



zamonaviy tarjimalari ichiga kiritilgan. Yangi Ahd to'rtta xushxabar (The Gospel)ni o'z ichiga oladi: Matto, Mark, Luka va Yuhanno. Yangi Ahd to'rtta xushxabar (The Gospel)ni o'z ichiga oladi: Matto, Mark, Luka va Yuhanno. Bulardan dastlabki uchta Iso Masih hayoti va faoliyati, o'limi va vafotining uchinchi kuni qayta tirilishi haqidagi o'xshash xabarlar jamlanganligi uchun «sinoplik xushxabar» (bir tekis yig'ma, to'plangan) deb ataladi. Yuhanno injilida esa asosiy nuqta payg'ambarning xaloskor sifatida namoyon bolishi hisoblanib, ruhni bu dunyo iztiroblaridan xalos qilishni «aql bovar qilmas namunasi» Iso Masih hayoti misolida tasvirlanadi. Shu bilan birga, Yangi Ahd havoriylar (masalan, Pavel (Paul), Peter (Peter), Iakov (James), Yuhanno (John) va b.) maktublaridan iborat bolib, ularda milodiy I asrda ilk cherkov faoliyatini tashkil qilish uchun zarur hisoblangan ilohiyot, ta'limot, e'tiqod va axloqqa oid masalalar muhokama qilinadi. Xavoriylar maktublari orasida - rimliklar, korinfliklarga birinchi va ikkinchi, galatyalik, filippinliklar, salonikaliklar va Filimonga jo'natilgan nomalar Pavelga tegishli ekanligida shubha bildirilmaydi. Qolganlari esa mazmunan Pavel maktublariga o'xshashligi yuzasidan ular ham Pavelga ta'miniy nisbat beriladi. Umuman olganda, Yangi Ahd tarkibiy qismini tashkil qilgan «Havoriylar faoliyati» kitobi birinchi Troitsa bayramidan apostol Peter va Pavelning xristianlik dinini yoyishga bag'ishlangan safari (Evangelical tour) amalga oshgunga qadar bolgan davr haqida hikoya qiladi. Yangi Ahdning yana bir qismi sanaluvchi «Vahiy» kitobi dunyoning oxiri va Yer yuziga Iso Masihning ikkinchi tushishi xususida xabar beradi. Yangi Ahdni tashkil etgan barcha kitoblar Iso Masih vafotidan keyingi dastlabki yuz yillik ichida yozilgan bolib, ulardan qaysi biri Yangi Ahd tarkibiga kirishi yoki olib tashlanishi to'g'risidagi yakuniy qarorga milodiy IV asrdagina kelingan. Islom. Islom dinining muqaddas manbayi Qur'on — bosqichma-bosqich Jabroil farishta vositasida o'qish va yozishni o'rganmagan Muhammad (s.a.v.)ga nozil bo'lgan, farishta Qur'on oyatlarini Payg'ambarga tilovat qilib turgan, o'z navbatida, Payg'ambar ularni o'z ummatiga o'rgatgan, ular esa oyatlarni yodlab, barg va qog'oz parchalariga yozib qo'yganlar. Qur'on oyatlari to'liq kitob holatida zamon talabidan kelib chiqib, muayyan shartlar asosida payg'ambar vafotidan so'ng jamlangan. Natijada, Qur'on oyatlarining hajmi katta-kichikligiga qarab hamda hayotlik chog'ida Payg'ambar (s.a.v.) bergan ko'rsatmasiga monand ravishda tartiblangan 114 suradan iborat mus'haf ko'rinishiga keltirildi. Bugungi kunga qadar Qur'on dunyoning turli tillariga tarjima qilindi, ammo, musulmon ulamolar tomonidan qilingan bu tarjimalar arab tilidagi Qur'on kabi «ilohiy xabar beruvchi» sifatini tom ma'noda ochib bermaydi, deb ishoniladi. Buning sabablari bilan quyidagi mulohaza orqali tanishish mumkin. Islom manbalari deganda, avvalambor, Qur'oni karim va hadisi sharif tushuniladi. Ushbu manbalarni o'qish, tushunish va talqin etishning o'ziga xos shartlari mavjud. Zero, muqaddas manbalarni shunchaki talqin etish ushbu dinga e'tiqod qiluvchilar orasida ixtilofli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ilk islom tarixida paydo bolgan turli firqa va oqimlar Payg'ambar (s.a.v.) vafotidan keyin Qur'oni karim oyatlarini o'z manfaatlariga mos tarzda talqin eta boshladilar. Bunda ko'pincha e'tiqod, ibodat, hokimiyat masalasidagi oyatlarga urg'u berar edilar. Xususan, imon masalasida ilk islom tarixida shakllangan xorijiyalar, molaziliylar, shuningdek, shialikda yuzaga kelgan firqalar orasida

ixtilofli tortishuvlar yuzaga keldi. Ushbu masalaning naqadar muhim ekani shunda ham kolinadiki, mazkur oqimlar kimni imonli, ya'ni mo'min deb hisoblash mumkin va kim imonsiz yoki kofir deb hisoblanadi, degan masalada bahsga kirishdilar. Natijada o'zlari «kofir» yoki «fosiq» deb hisoblagan kishilarga qarshi urush e'lon qilish, go'yoki «jihod»ni amalga oshirishni da'vo qilib chiqa boshladilar. Islomning asl tinchlik mohiyatini buzish- ga ko'plab urinishlar bo'ldi. Mazkur harakatlar mohiyatini chuqur o'rgangan islom ulamolari diniy manbalarni talqin etish bo'yicha qat'iy shartlar va mezonlarni ishlab chiqdilar. Xususan, Qur'oni karim oyatlari ma'nosini tushunishda vosita bo'lib xizmat qilgan «tafsir», «ta'vil», «tarjima» tushunchalari yuzaga keldi. Qur'oni karim oyatlarini tafsir qilishda ikki y o'l mavjud bolib, bular — «at-tafsir bil-ma'sur» (Qur'on, Sunnat yoki sahoba va tobiinlardan asar bolib kelgan naqlar asosida tafsir qilish) hamda «at-tafsir bir-ra'y» (muayyan shart va chegaralar asosida oyatlarni aql-u tafakkur yordamida tafsir qilish) hisoblanadi. Imom Moturiy keltirishicha, o'z navbatida, bu borada naql va aql hukmlarini mukammal bilish talab qilinib, bunda naql hukmlari — Qur'oni karim, sunnati nabaviy, muhkam va mutashobih, nosix va mansux, xabar, uning shartlari, aql, nazar, ta'vil, ijti hod, dalil va hujjatlarni keltirish hukmlarini ham bilish kerak. Ta'vil — bir lafzda ehtimoli bor bolgan ikki ma'noning bittasining tanlanishi va uning quvvatlanishini bildiradi. Qur'oni karimda «ta'vil» so'zi bir necha (tafsir va ta'yin, ofiyat va oqibat, bashoratning amalga oshishi, tushning ma'nosi, amalga oshirilgan ishning sababi) ma'nolarda keladi. Islom olimlari nazdida ta'vil qiluvchidan ikki narsa talab qilinadi:

- 1) ta'vil qilinayotgan lafzning asl ma'nosidan tashqari ikkinchi uzoqroq ma'nosi ham bor ekanligini, bu yerda shu uzoqroq ma'nosi murod ekanligini isbotlash;
- 2) lafzning asl ma'nosini emas, uzoqroq ma'nosini tanlashga nima majbur etganligini isbotlovchi dalil keltirish kerak boladi. Qur'oni karimni so'zma-so'z tarjima qilish, deganda esa oyatlarni bir tildan ikkinchi tilga, nazm va tartibini, asl ma'noning saqlanishini rioya qilgan holda o'girish tushuniladi. Mutaxassislar nazdida Qur'oni karim oyatlari tarjimasini ikki xil boladi: 1) asliga o'xshagan tarjima. Bunda oyatlarning har bir so'zi barobariga boshqa lug'at so'zlari qo'yiladi, oyatlarning va undagi so'zlarning nazm va tartibi o'zgarmaydi. Hattoki asl matndan bilinib turgan balog'at va fasohat ham o'zgarmagandek tuyuladi;
- 2) asliga o'xshamagan tarjima. Bunda tarjimon Qur'on nazmiga e'tibor qilmagan holda, toqati yetganicha oyatlar mazmunini boshqa tilga o'girib beradi.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. «Muqaddas kitob», «diniy manba», «muqaddas yozuv» tushunchalarini izohlang.
2. Muqaddas manbalar qanday xususiyatlarga ega?
3. «TaNaX» nima degan ma'noni bildiradi?
4. Konfutsiylik diniy manbalari to'plami necha qismdan iborat?
5. Diniy manbalarga oid qanday tushunchalarni bilasiz?

## Adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Mashudiy // Tanlangan asarlar. V tom. Birinchi kitob. — T., 1973. 2.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar. I tom. - T., 1968.
3. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. - T.: Mehnat, 2004.
4. Мюллер М., Вундт В. От слова к вере. Миф и религия (История религии). - М.: Изд-во Эксмо; Санкт-Петербург: Терра Фантастика, 2002.
5. Пилкингтон С. Иудаизм / Пер. с англ. Е.Г.Богдановой. - М.: Фаир-Пресс, 2000.
6. Религиоведение. Хрестоматия / Пер. с англ., нем., фр. Сост. и общ. ред. А.Н.Красникова. — М.: Книжный дом «Университет», 2000.
7. Религиоведение: хрестоматия /сост. В.Б.Рожковский, Д.Л.Устименко. — Ростов на Дону: Феникс, 2009.
8. Тора (Пятикнижие Моисеево). / Под. общ. ред. проф. Г.Брановера. — Иерусалим, Москва: Шамир, 1993.

## 2-MAVZU: Jahon dinlari manbalarini tadqiq etishda diniy sharhlarning o'rni Reja:

1. Diniy manba tushunchasi
2. Dinshunoslikka oid manbalarni tadqiq etishdagi yondashuvlar.
3. Qadimiy dinlar manbalarining qiyosiy tahlili.

1. Yahudiylik, xristianlik kabi qadimiy va jahon dinlarining manbalari, ularga oid jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar, turli tillarga qilingan tarjimalar va boshqa muqaddas manbalar bilan bog'liq manba, adabiyot va tadqiqotlardir.

“Diniy manba” deganda, asosan, biror dinning birlamchi muqaddas manbasi tushuniladi. Turli dinlardagi muqaddas manbalarning bir-biridan o'zaro farqlari mavjud. Masalan, yahudiylikda Tavrot va Talmud, xristianlikda Bibliya, islomda Qur'on ana shunday kitoblar hisoblanadi. «Muqaddas yozuvlar»ning ayrimlari (Tavrot, Injil, Qur'on) faqat xudo so'zlari deb e'tiqod qilinadi, boshqalari (yahudiylarning muqaddas manbasi –TANAX va xristianlar Bibliyasiga kiritilgan payg'ambarlarning kitoblari, solnomalar, duolar va b.) xudoning qudrati va amri bilan inson diliga solinishi natijasida payg'ambar, elchi, vakillar tomonidan yozilgan, deb hisoblanadi.

Dunyo miqyosida turfa xillik, ya'ni turli diniy e'tiqodga, irq va millatga, madaniyatga mansub bo'lish holati hukm surayotgan ayni vaqtda dunyo xalqlari uchun umuminsoniy bo'lgan qadriyatlar diniy manbalarda ham o'z aksini topganini ko'rsatib berish muhim vazifa hisoblanadi. Chunki g'araz niyatli kuchlar ma'n

bir xil, ammo shaklan har xil bo'lgan yuksak insonparvarlik tushunchalarini bir-biriga zid ko'rinishda talqin etib, xalqlar orasida ixtilof va to'qnashuvlarni keltirib chiqarish va shu yo'l bilan o'zlarining manfaatlarini hosil qilishga zo'r berib urinmoqdalar. Bunda diniy manbalarni ularning shakllanish davridagi tarixiy jarayonlardan ayri holda talqin etishga harakat qilinmoqda. Ushbu harakatlarning oldini olish maqsadida diniy manbalarni o'rganishdagi yondashuvlarning turlari, ular orasidagi farq va mushtarak jihatlarni ilmiy asosda yoritib berish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur fanning predmeti muqaddas manbalarni tahlil etishdagi uslubiy yondashuvlar, sharh va talqin etish usullari, tasniflash turlarini o'rganish, bir so'z bilan aytganda tadqiq etish metodologiyasini o'rganishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy qiyosiy tahlil, retrospektivlik, deduktsiya va induktsiya metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, manbalarni xolis, ilmiylik, ob'ektivlik tamoyillari asosida o'rganish talab etiladi.

2. Dinshunoslikka oid manbalarni tadqiq etishdagi yondashuvlar. Yevropada dinshunoslik fani XVIII asrdan boshlab nazariy va amaliy bilimlarni to'plash borasida muayyan yutuqlarga erishdi. Aynan shu paytda bu mintaqada Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo dinlarini birlamchi manbalar asosida o'rganish jadal sur'atlarda boshlandi. G'arb islomshunosligi shakllandi, bir qator xolis ilmiy asarlar yaratildi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrning birinchi yarmida to'plangan faktologik material hamda tadqiqotchilar asarlarida ko'tarilgan nazariy muammolar gumanitar ilmning yangi sohasi – dinshunoslikning alohida fan sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Bu esa birinchi navbatda diniy manbalarning tadqiqidan boshlanganini alohida ta'kidlash lozim. XIX asrning ikkinchi yarmida falsafa, antropologiya, etnografiya, arxeologiya, tilshunoslik, qiyosiy mifologiya hamda folklorshunoslik fanlari kesishgan nuqtada paydo bo'lgan dinshunoslik avval boshidan dunyodagi dinlarni manbalar yordamida xolis ilmiy tadqiq qilish maqsadini o'z oldiga qo'ydi. Bu soha mutaxassisleri faqat sinchiklab tekshirilgan, sinab ko'rilgan empirik ma'lumotlar hamda diniy manbalarga asoslanish lozimligini, bu faktlarni sharhlashda ratsionalistik usulni qo'llash zarurligini alohida ta'kidlaganlar. Mana shu asosdagina din rivojlanishi va amal qilishi umumiy qonuniyatlarini topsa bo'ladi, deb hisoblaganlar.

Dinga ijtimoiy institut sifatida ta'rif berish Matteo Rikki (1552-1610), Jozef Lafito (1681-1746), frantsuz tadqiqotchisi Sharl de Bross (1709-1777) kabi mualliflarning asarlarida uchraydi (Ignatenko A.A. Islam na proge XXI veka. – Moskva: SANT, 1989. – S. 45).

Matteo Rikki Xitoyda borib, bu mamlakat xalqining diniy tasavvur va marosimlarini o'rganadi. Natijada Konfutsiy dini bilan xristianlik o'rtasida anchamuncha yaqinlik bor ekanini aniqlaydi (Nizomiddinov N. Janubiy-Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta'limotlari va islom. – T.: Zarqalam. 2006. – B. 48). Jozef Lafito asarlari orqali Yevropa ilmiy jamoatchiligi Shimoliy Amerika indeetslarining diniy qarashlari va urf-odatlaridan boxabar bo'ladi. Sharl de Bross G'arbiy Afrikaning fetishistik tasavvurlari haqida ilmiy asarlar e'lon qiladi.

Taylor qalamiga mansub "Ibtidoiy madaniyat" asarida ruhlarga bo'lgan ishonch-e'tiqod, ya'ni animizm nazariyasi asoslab beriladi. Shu o'rinda aytish kerakki,

animizm atamasi ayrim tadqiqotchilar e'tiroziga sabab bo'lgan. Xususan, rossiyalik tadqiqotchi I.A.Krivelev bu tushunchani "Polidemonizm", ya'ni o'nlab demon – ruhlarga e'tiqod qilish tarzida berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi, deb fikr bildirgan. Biroq, bu fikr dinshunoslikda qo'llab-quvvatlangani yo'q.

Zamonaviy dinshunoslikning fan sifatida shakllanishiga turtki bo'lgan omillardan yana biri, G'arbda Sharq tillarini, xususan, qadimgi hind tili – sanskritning o'rganilishi bo'ldi (Myuller M. Ot slova k vere. Mif i religiya. – Moskva: Eksmo, Sankt-Peterburg, 2002. – S.123). Uilyam Djons (1746-1794) sanskritni yevropa tillari bilan solishtirib, ular orasida o'xshashliklar juda ko'p ekanini aniqladi. Uning xulosasiga ko'ra, yevropa tillari hamda sanskrit bitta til oilasiga mansub. Bunday solishtirma o'rganish til sohasidan so'ng mifologiya sohasiga tatbiq etildi. Natijada, hind, grek va rim mifologiyalari orasida ham yaqinlik mavjudligi aniqlandi, ayni paytda Qiyosiy filologiya faniga asos solindi.

Nemis sanskritshunosi Frants Bopp (1791-1867) asarlari faqat filologiya, mifologiya emas, hozirgi dinshunoslikning ravnaqiga ham munosib hissa bo'lib qo'shildi. Frantsiyada sharqshunoslarning yetakchisi Ejen Byurnuf (1801-1852) bo'lib, u qadimgi pali va zend tillarini mukammal o'rgandi, hind va eron mifologiyasini tadqiq qildi hamda qadimgi hind matnlarini tarjima qilib, asarlar yozdi.

Sharqqa bo'lgan ilmiy qiziqishning kuchayishi ta'siri ostida Parijda 1814 yili sanskritshunoslik kafedrasini ochildi, 1822 yili Osiyo jamiyati tashkil etildi. Jan Fransua Shampolbon (1790-1832) tomonidan Misr ierogliflari shifrining topilishi Yevropa ilmiy doiralarida haqiqiy sensatsiya bo'ldi. Misr xatini o'qish Qadimgi Misr dinini tadqiq etish, binobarin Injilda keltirilgan ayrim tarixiy ma'lumotlarni tekshirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

XIX asrning birinchi yarmida Georg Fridrix Kreytser (1771-1858), Gotfrid German (1772-1848), Jozef fon Gyorres (1776-1848) kabi yevropa olimlarining diqqati mifologiyani tadqiq etishga qaratildi. Gyorres o'z asarida Yevropa sivilizatsiyasining beshigi Hindiston ekani haqidagi fikrni olg'a surdi, barcha diniy va afsonaviy (mifologik) an'analarning ildizi shu qadimiy o'lkaga borib taqalishi g'oyasini maydonga tashladi. Kristian Gotlib Geyne (1729-1812) va Karl Otrid Myuller (1797-1840) Qiyosiy mifologiyaning bu yo'nalishiga qarshi chiqdilar.

Yevropadagi romantik harakat ta'siri ostida aka-uka Grimm-Yakob (1785-1863) hamda Vilgelm (1786-1859) xalqlarning og'zaki ijodida, ajoyib ertaklarda va dostonlarda majusiylar sig'ingan xudolar to'g'risida qadimgi mif va tasavvurlar izlarini topish mumkin, deb hisobladilar. O'zlari ham ajoyib ertaklar yozdilar.

Rossiyada dinshunoslik fani rivojiga Yu.P.Frantsev, I.A.Krivelev, S.A.Tokarev, shuningdek, rus sharqshunoslari V.V.Bartold, E.Bertel's, I.Yu.Krachkovskiy kabi olimlar katta hissa qo'shdilar.

Har qanday diniy ta'limotni o'rganishda uning yozma manbalari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma diniy manba tadqiqotchiga ob'ekt sifatida tanlab olingan din yoki diniy guruh elementlari haqida eng muhim ma'lumotlarni bera oladi. Qiyosiy dinshunoslikda turli dinlarning yozma manbalari o'zaro qiyoslanganda fanda tom ma'noda yangilik yasay oladigan hayratomuz ma'lumotlar yuzaga kelishi mumkin.

Yozma diniy manbalarni qiyoslash uslubi Yevropa mamlakatlarida Maks Veber va uning shogirdlari asos solgan maktab tufayli ancha ilgarilaydi. Veber bir necha yillar davomida Hindistonda yashab, hinduizm va Veda dinlarini o'rgandi. U bevosita qadimgi sanskrit tilida yozilgan Vedalarni o'rganib, barcha dinlarning tarixiy va teologik ildizlari ushbu kitobga borib taqaladi, degan fikrni ilgari suradi. Bunga isbot sifatida u quyidagilarni keltiradi:

□ Vedada bosh xudolardan biri bo'lgan Braxma o'zining butun olam va koinotni yaratib, odamlar ko'zidan maxfiy bo'lishini aytadi. Veber buni pramonoteizm asosi deb hisoblaydi;

□ kitobda juda oddiy va sodda tilda bo'lsa-da, tibbiyot, astronomiya, gigiena, mifologiya, geografiya haqida elementar ma'lumotlar mavjuddir;

□ qadimgi sanskrit tilida ko'pchilik so'zlar nemis, rus, fors, ingliz, frantsuz va ispan tillaridagi so'zlarga juda o'xshashdir. Masalan: pedar-father, modar-mother kabilar.

Vedalarda, shuningdek, xristian, zardushtiylik, yahudiylik, buddaviylik, monaviylik va boshqa dinlarning teologik kontsepsiyalari va nazariy asoslari bilan bog'liq jihatlar ham ko'plab uchraydi. Masalan: yahudiylik dinidagi narigi dunyo – Sheol deb ataladi, ammo uni mukammal tarzda ishlab chiqilgan esxatologik tushuncha deb atash qiyin. Tavrotidagi mavhum Sheol bilan Vedalarda tilga olingan ruhlarning samodagi makonini nazariy jihatdan qiyoslash mumkin;

Vedalarda ilohlarga, ayniqsa, Trimurtini tashkil qilgan xudolarning yordamchilariga turli qurbonliklar keltirish xudolarning muruvvati va xayrixohligiga sabab bo'lishi aytiladi;

Zardushtiylarning muqaddas kitobi bo'lmish Avestoda Axura-Mazdaning yordamchisi bo'lmish Mitraga ham qurbonlik keltirish Axura-Mazdaga yaqinroq bo'lish va uning muruvvatiga sabab bo'lishi aytilib, unga sig'inishga buyuriladi;

Vedalarda insonlararo munosabatlarda insof va adolat, tabiatdagi barcha jonli va jonsiz jonzotlarga muloyimlik bilan munosabatda bo'lish kerakligi ta'kidlanadi. Bunday umuminsoniy g'oyalar xristianlar Injili, yahudiylar Tavroti, buddaviylarning Tripitakasi va zardushtiylarning Avestosida ham deyarli bir xil mazmunda jaranglaydi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar islom bilan zardushtiylikni solishtirganlarida Qur'on va Avestoda tilga olingan jahannamlarni solishtiradilar. Avestoda tilga olingan jahannam ustidagi Chinvo't ko'prigi haqidagi tushuncha asrlar osha o'zbek va fors-tojik xalqlari orasida islomiy tusda saqlanib qolaveradi. Markaziy Osiyo mintaqasida islomning o'zidan avval mavjud bo'lgan turli mahalliy dinlar bilan aralashma sinteziga guvoh bo'lgan etnograf va tarixchi olimlar fanga "Markaziy Osiyo islomi" degan yangi tushunchani kiritdilar. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo Tojikiston va Afg'onistondagi milliy urf-odat va qadriyatlarining ko'pchiligini shunchaki islomiy qobiqqa o'ralgan eski diniy qadriyatlar deb atash mumkin. Masalan: hozirgi paytda Afg'onistonda yashaydigan laqay-o'zbeklar Navro'z kuni yomg'ir yog'sa, kamalakka qarata mis chelaklarda suv sepadilar va xonadonlariga farovonlik so'rab duo qiladilar. Aynan shu odat Tojikistonda, inqilobdan avval O'zbekistonning Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida ham mavjud bo'lgan.

Ingliz tadqiqotchisi Rudolf Gerbert o'zining "Sharq dinlarining qiyosiy tahlili" asarida zardushtiylik va xristian dinlarini qiyoslab, quyidagi xulosalarni bayon

qiladi (Rudolf Gerbert. *Sravnitel'nyy analiz vostochnykh religiy*. M. : Izd. Svet. 1997. S. 57.):

Zardushtiyalar marhumning dafn marosimini 40 kun davomida o'tkazadilar. Xristianlarda ham shunday.

Zardushtiylik ibodatxonalari va xristian cherkovlarida hamisha shamlar yoniq turadi.

Zardushtiy koinlari va xristian ruhoniylarining ustki liboslari bir-biriga juda o'xshaydi. Diniy marosimlar paytida ikkala din vakillari ham muqaddas kitoblaridan parcha o'qiydilar.

Zardushtiyalar va xristianlarda bolalar 12 yoshda voyaga yetgan hisoblanadilar va ularga atab maxsus marosim o'tkaziladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar zardushtiylikdagi Quyosh ma'budi Mitrani Isoning astral-mifologik obrazining ikkinchi qayta talqini deb hisoblaganlar.

Yahudiylarning Tavrot kitobida tilga olingan rituellarning ko'pchiligi zardushtiylikning juda o'xshaydi. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Zardushtni yoshligida Mesopotamiyaga borib, donishmand Ilyosdan ta'lim olganini, yahudiylarning o'zlari ham uni Ilyosning shogirdlaridan bo'lgan, deb hisoblashlarini xabar qiladi (Beruniy, Abu Rayhon. *Tanlangan asarlar*. – T. I. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. – T.: Fan, 1968. – B. 488).

Tavrot kitobida ayrim gigienik va kundalik marosimlar zardushtiylikning kundalik hayotidagi amallarga juda ham o'xshab ketadi. Masalan, atrof-muhitni iflos qilmaslik, tabiatdagi tirik jonzorlarga ozor bermaslik, havo va suvni ifloslantirmaslik, insonlar o'rtasidagi munosabatlar kabi masalalarda mazkur dinlarning muqaddas manbalari o'zaro muvofiq keladi. Undan tashqari, yahudiy va zardushtiyalar deyarli bir paytda bahor va kuzdagi dehqonchilik bayramlariga bag'ishlab, maxsus marosimlar o'tkazganlar va qurbonliklar keltirganlar.

3. Qadimiy dinlar manbalarining qiyosiy tahlili. Dunyo dinlari manbalari o'zaro bir-biridan farqlanib, har birining o'ziga xos jihatlari borki, ulardan birini boshqasiga aynan o'xshatib bo'lmaydi. Masalan, zardushtiylik dini manbasi Avesto shu din shakllangan va taraqqiy etgan tarixiy jarayonlarni o'zida aks ettirgan. Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy hayotining shakllanishida muhim o'rin tutgan ilk milliy-tarixiy, diniy-falsafiy va axloqiy-ta'limiy asoslar, avvalo, ana shu ta'limot bilan aloqadordir.

Tabiiyki, bu ta'limot birdaniga shakllanmadi. Moddiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotning barcha jabhalarini insonparvarlik tamoyili asosida isloh qilishga qaratilgan zardushtiylik murakkab yo'lini bosib o'tdi. Barcha dinlardagi qat'iy qonun-qoidaga asoslanganlik bu dinga ham xosdir. Zardushtiylik o'z qonun-qoidalari bilan ko'pxudolik, qirg'in, qavm va elatlararo nizolar, axloqsizlik kabi illatlarga qarshi kurashda vujudga keldi.

Zardusht asos solgan bu din mazmuni umumbashariy mohiyati bilan katta nufuzga ega bo'ldi. Uning muqaddas kitobi "Avesto" boshqa diniy kitoblar kabi qomusiy xarakterga ega bo'lib, odam va olam munosabatlari, shaxs faoliyati haqida juda boy ma'lumotlar beradi. Muhimi shundaki, bu qarashlarning umumiy mazmuni yagona nuqtada jamlovchi va zardushtiylikning tub mohiyatini ifodalovchi bosh g'oya bor: bu – go'zal axloq, ma'naviy poklik, yetuklik hamda "ezgu fikr, ezgu

so'z va ezgu amal"dir. Bu qarashga alohida urg'u berilishi va inson tafakkurining mutlaq borliq bilan aloqadorligining ustuvorligi jihatiga ko'ra zardushtiylik boshqa dinlardan farqlanadi.

"Avesto"dagi axloqiy uchlik g'oyasi eng qadim davrlardan boshlab, kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ta'limiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'ldi.

Darhaqiqat, "Avesto" kitobidagi ilohiy mazmun va teran qarashlar insoniyat tafakkuri tarixida alohida o'rin tutadi. Asardagi ijtimoiy, ta'limiy-axloqiy, diniy-ma'rifiy fikrlar o'zining umumbashariy mohiyati bilan hamma zamonlar uchun dolzarb va ibratlidir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "bu kitobda ifoda etilgan buyuk g'oyalar, falsafiy hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi". Ana shu hayotiy mazmun tarkibining katta qismi axloq-odob masalalariga bag'ishlangandir. Shu bois, "Avesto" ezgulik falsafasi, axloq kodeksi hamdir.

"Avesto"dagi axloqiy qarashlarga munosabatda zardushtiylik ta'limoti rivojidagi bosqichlar, kishilarning turli davrlarga oid turmush tarzi va ma'naviy-maishiy sharoitlarni hisobga olish zarur. Tadqiqotlarda bunday bosqichlar uchtaligi ta'kidlanadi. Jumladan:

- 1) Jamiyat hali sinflarga bo'linmagan davrlarda urug', qabila va elatlarning ijtimoiy-axloqiy qarashlari aks etgan bo'lib, unda ko'pxudolik aqidasi saqlangan va tabiat kuchlarini ilohiylashtirish mavjud edi.
- 2) Ko'pxudolikdan yakka Tangri Ahura Mazda e'tiqodiga o'tish va Zardusht faoliyatining boshlanish davri.
- 3) Ezgulik va yovuzlik kurashi, mazdaparastlik-zardushtiylik dini ta'limoti davri.

Bu bosqichlarning har biridagi ijtimoiy-axloqiy qarashlar "Avesto"ning muayyan qismlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, birinchi bosqichga xos qarashlar asosan, "Yasht" va "Videvdot"da aks etsa, ikkinchi bosqich uchun bevosita muallifi Zardusht bo'lgan "Got" (goh)lar xarakterli deb hisoblanmoqda. Uchinchi bosqichda yuqoridagi davrlarda mavjud bo'lgan qarama-qarshi aqidalar, kuchlarning yakka Tangri g'oyasi uchun murosasiz kurash jaryoni bayon etiladi.

Ikkinchidan, uzoq vaqt mobaynida shakllanib, takomillashib borgan bu ma'naviy ta'limot tarixiy sharoit va zamonlar taqozosi bilan muayyan o'zgarishga uchragani tabiiydir. "Avesto"ning asl nusxasi qadimgi sanckrit tiliga yaqin tilda yozilgan bo'lib, turli ofat va johilliklar natijasida uning ayrim qismlari nobud bo'lgani ma'lum.

Keyingi asrlarda "Avesto" qismlariga turli axloqiy-ma'naviy, huquqiy qarashlar, diniy urf-odatlar talqinlari qo'shib borgan. Jumladan, sosoniylar sulolasining dastlabki podshoxi Ardasher Bobokon Xirbadan nomli donishmandga "Avesto"ni qayta tiklash vazifasini buyurdi. U bir qancha zardushtiy ulamolar bilan hamkorlikda obidani qayta yozib olib, tartib beradi, shuningdek, Shopur II davrida Ozarpot Mehrospandon ham "Avesto"ning parokanda qismlarini to'plab, alohida majmua tuzadi.

IX asrda o'rta forsiy tilda yozilgan "Denkard" asarida "Avesto"ning tarkibiy qismlari, zardushtiylikning axloqiy, diniy-falsafiy va ma'naviy mundarijasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.



Zardushtiylik dini va “Avesto” kitobining shakllanish va qaror topishidagi bu uzoq davrlar, shubhasiz, ular g’oyaviy mazmunidagi qarashlarning tadrijiy takomili, ijtimoiy tuzumlar bilan bog’liq jihatlarini ham ifodalaydi. Jumladan, zardushtiylikning ilk kurtaklari paydo bo’layotgan davrda axloqiy-ma’naviy qarashlar umummanfaatlarni ifoda etgan bo’lsa, sinfiy jamiyat va mulkiy tabaqalashish kuchaya borgan sari ular mohiyatida yuqori tabaqa vakillarining manfaatlari ham aks etgan. Lekin “Avesto”ning asosiy mazmun-mohiyatini ezgulikni ulug’lash, inson shaxsining kamolotini ta’minlash uchun kurash g’oyasi belgilaydi.

Zero, Zardusht ta’limoti kishilarni faqat diniy aqidalarni o’rganib, ibodat bilan shug’ullanishga da’vat etibgina qolmay, balki ularni faollikka, yaratuvchilikka undab, jaholatga qarshi ma’rifat uchun intilishga ruhlantiradi. Shuning uchun ham avestoshunos olimlarning Zardusht falsafaga axloq kategoriyasini olib kirganligini tan olishlari tasodifiy emas.

Zardushtiylik ta’limoti voqelikni ilohiy tafakkur asosida tushunishga asoslangan. Bu hol bashariyat ijtimoiy ongidagi dastlabki bosqichlarga oid tabiat va jamiyat haqidagi ibtidoiy tushunchalar bilan bog’liqdir.

Yahudiylik dini o’zini Ibrohim payg’ambarning nabirasi Yoqub (a.s.) avlodlarining dini shaklida qabul qiladi. Xristianlik dini esa, dinshunoslik nuqtai nazardan, yahudiylik sektasi sifatida paydo bo’ldi. Keyinchalik u umumiy tushunchalar bilan bir qatorda yahudiylik dini ta’limotidan farq qiluvchi aqida va amaliyotlar bilan mustaqil din bo’lib rivojlandi, ya’ni, yahudiylik dinidagi “yagona Xudo” to’g’risidagi aqida bir vaqtning o’zida uch shaklda ko’rinadi, deb e’tiqod qilinadigan “triniti” (uch xudo) ta’limoti bilan o’zgardi. Islom dini esa ushbu dinning muqaddas manbasi Qur’oni karim ko’rsatmalarini Muhammad payg’ambar (a.s.) vositasida milodning VII asrida Arabiston yarim orolida yoyilishi ortidan vujudga keldi. Dastlabki ikki dindan farqli ravishda, bu din ta’limotida yakkaxudolik tushunchasiga qattiq urg’u beriladi hamda xristianlik ta’limotida bo’lgani kabi payg’ambarni ilohiy darajaga ko’tarilishi qabul qilinmaydi.

Ushbu uch din tarixini tadqiq etish davomida ularning o’xshash va farqli jihatlarini uchratish mumkin. Aqida borasida “birlik” tushunchasini ustunligi hamda din sifatida vujudga kelishining dastlabki bosqichini bir payg’ambar nomiga bog’lashi sababidan mazkur dinlar o’rtasida ajralmas rishtalar mavjud, deb hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek, bu uch din yakkaxudolik g’oyasiga asoslangan din bo’lib, Xudoni – yakka-yagona, yaratuvchi, olamni boshqaruvchi, insonlar orasidan tanlab olgan payg’ambariga farishta vositasida vahiy yo’li bilan ilohiy ko’rsatmalarni tushiruvchi, yazgulik qilgan bandani sevguvchi, ularni mukofatlab, afv ettiruvchi, vafot ettiruvchi, insonning iymon va amaliga qarab o’limdan keyingi dunyoda uning qismatini belgilovchi Zot, deb e’tiqod qilinadi.

Bu uch din ijtimoiy hayotda turli rol, qarash va tushunchalarni ifodalashiga qaramay, ushbu dinlarning muqaddas manbalari ko’plab o’xshash obraz, tarix va joylarni qamrab olgan. Yahudiylik, xristianlik va islom dinlari umumiy aqidalar bilan ta’riflanishi bilan bir qatorda uning tarkibidagi e’tiqod va shariat masalalariga oid tushunchalarning turli talqin qilinishi sababidan ko’plab yo’nalishlar yuzaga kelgan.

Samoviy dinlar aqidaviy jihatdan o'ziga xos ko'rinishga ega. Masalan, yahudiylik ta'limoti to'rt asosga tayanadi: Olamlarni yaratuvchi yagona xudo – Yahvega imon keltirish. Yahudiylik ta'limotiga ko'ra, Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni esa dam oldi va yahudiylarga ham shu kuni dam olishni buyurdi. Shu sabab yahudiylik dinida shanba kuni ulug' kun hisoblanib, hech bir ishga qo'l urilmaydi; yahudiylar yer yuzidagi xalqlarning «eng mumtozi» va u «dunyoda berilajak in'omlarning eng haqlisi» ekanligi; Messiya – xaloskorning kelishi haqida. Unga ko'ra, oxirzamonda Yahve yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) dunyoni isloh qilgan holda qaytadan quradi; 2) butun yahudiylarni Sinion atrofida to'playdi; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolaydi.

Aqidaviy masalalar bo'yicha yahudiylik va islom dinlaridan ma'lum jihatlar bilan farq qiluvchi xristianlikning asosiy g'oyasi – Isoning odamzotning xaloskori «messiya» ekanligi yahudiylikda mavjud bo'lib, oxiratga yaqin kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta'limotdan kelib chiqqandir.

Keyinchalik bu ta'limot Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki xil – odam va xudo mohiyati haqida «gunohni yuvish», ya'ni Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilishi haqidagi ta'limot bilan mustahkamlanadi. O'rta asrlar davomida xristian ilohiyotchilari o'rtasida o'tkazilgan turli soborlar natijasida xristianlarning «e'tiqod timsoli»ni ifodalovchi 12 aqida qabud qilindi. Ular quyidagilardan iborat: birinchi, olamni yaratgan Xudo; ikkinchi, nasroniylikda Xudoning o'g'li hisoblangan Iisus xristosga imon keltirish; uchinchi, ilohiy mujassamlashuv – Iso Xudo bo'la turib, bokira Bibi Maryamdan tug'ilgan va inson qiyofasiga kirganligi; to'rtinchi, Isoning azob-uqubatlari va o'limi hamda gunohlarning kechirilishi; beshinchi, Isoning xochga mixlanganidan so'ng uch kun o'tib qayta tirilganligi; oltinchi, Iso payg'ambarning me'roji; yettinchi, Isoning nuzuli (ikkinchi marotaba yerga qaytishi); sakkizinchi, Muqaddas Ruhga imon keltirish; to'qqizinchi, cherkovga munosabat; o'ninchi, cho'qintirishning gunohlardan forig' qilishi; o'n birinchi, o'lganlarning ommaviy tirilishi; o'n ikkinchi, abadiy hayot.

Yahudiy dini boshqa dinlar kabi o'zining muqaddas manbalariga ega. Uning asosan ikkita manbasi bo'lib, biri – mil. av. XIII asrda yashagan va Isroil xalqini Misrdan olib chiqib ketilishiga boshchilik qilgan Muso payg'ambarga Tur tog'ida berilgan Tora (Tavrot), ikkinchisi Tavrotdan keyinroq paydo bo'lgan yozma manba Talmuddir. Yahudiylikdagi bu ikki muqaddas sanaladigan manba xristian Bibliyasining tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Bibliya yahudiylik va xristianlik dinlari ta'limotiga ko'ra, Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o'zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir. Bibliya so'zi grek tilida biblia – “kitob”, “o'ram” ma'nolarini anglatadi. U ikki qismdan iborat: «Qadimiy Ahd» va «Yangi Ahd».

Yahudiy va xristian Bibliyalari (Bible) bir-biriga mos kelmaydi. Yahudiylarning muqaddas kitobi qadimiy Isroil va qadimiy yahudiylarning diniy ta'limot va urf-odatlarini asosida mil. av. XIII asrda yozilgan bo'lsa, xristianlarning kitobi milodning boshlarida vujudga keldi. Yahudiylar xristianlarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan olmaydilar. Xristianlar esa yahudiylarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan oladilar.

Xristianlarning muqaddas kitobi Bibliya ikki qism: 1) yahudiylar bilan bog'liq – “Qadimga Ahd” va Iso Masih hayoti, xristianlikning asosiy ta’limotlari berilgan “Yangi Ahd”dan iborat ekanligini ta’kidlab o’tdik. Yana shuni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, xristianlar “Qadimgi Ahd”ga yahudiy muqaddas kitoblarini kiritishda uning yunon tilidagi tarjimasini (septuaginta “etmishlar tarjimasini”)dan foydalanganlar. Yahudiylar muqaddas kitoblarning mohiyatini tarjimada to’liq berib bo’lmaydi degan mavqeda turib, faqat ibroniy tilida yozilgan matnlarni ilohiy hisoblaydilar. Shuning uchun “Bibliya”ni ham, uning tarkibiga kirgan “Qadimgi Ahd”ni ham tan olmaydilar.

Islom dinining muqaddas manbasi hisoblanuvchi Qur’oni karim – Alloh tarafidan 23 yilga yaqin muddat mobaynida Muhammad payg’ambarga oyatma-oyat, surama-sura tarzida nozil qilingan ilohiy (sakral) kitobdir. Islom ilohiyot maktablaridan biri ahl as-sunna va-l-jamoa ta’limotiga ko’ra, Qur’on Alloh taoloning so’zi va uning azaliy ilmidir. “Qur’on” so’zi – arabcha “qaraa” (o’qimoq) fe’lidan olingan. Boshqa fikrga binoan, u suryoniy tilidagi «kerain» – “muqaddas yozuv” ma’nosini bildiruvchi so’zdan olingan. Qur’on suralardan iborat.

Ma’lumki, Qur’oni karim Payg’ambar (S.A.V.) zamonidayoq yodaki tarzda musulmonlar orasida keng tarqalgan edi. Bunga birlamchi sabab, Qur’onning inson aqlini lol qoldiruvchi mo’jizakor Kalom ekanligida deb ko’rsatiladi. Ikkinchi sabab, Rasululloh (S.A.V.) Qur’onni tilovatu yod qilish, o’rganish va o’rgatishga targ’ib etganlaridir. Bu haqda shunday hadis mavjud: Usmon ibn Affon (roziyallohu anhu) Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam)ning shunday deganlarini rivoyat qiladilar: “Sizlarning yaxshilaringiz Qur’onni o’rganib, so’ng uni (boshqalarga) o’rgatuvchilaringizdir” (Buxoriy rivoyati).

Demak, Qur’onni o’rganish, ya’ni yod olish va uni o’zgalarga ta’lim berish kishini bandalar orasidagi eng yaxshisi bo’lishi uchun sabab bo’lar ekan. Bunga o’xshash mazmundagi hadisi shariflar juda ko’p ammo ushbu mavzu doirasi torligini hisobga olib, birgina hadis bilan kifoyalanamiz.

VII asrning oxirlarida ham, XXI asrning boshlarida ham, qiyosiy dinshunoslikdagi diniy manbalar haqidagi tadqiqotlar jamiki dinshunos va tarixchi sotsiolog mutafakkirlarlarni qiziqtirib kelgan. Eng aniq va mavhum bo’lmagan tushunchalarni shakllantira olgan diniy manba esa, shubhasiz, yozma va madaniy diniy manbalardan iboratdir. Dinlarning yetakchi manbalari dinning asl manbalari sifatida diniy ta’limotlar sohasida eng katta va mas’uliyatli vazifani bajargan, desak yanglishmagan bo’lamiz. Keltirilgan jamiki misollar atrofidagi qarashlar nafaqat dindorlarga, balki diniy manbalar talqini ostida ta’limotlarni o’rganuvchi har bir olim yo dinshunos mutaxassisga ham yetarlicha qoniqarli ma’lumotlar bera oladi. Jannat, jannat ahli, jahannam, sirot ko’prigi, kavsar hovuzi kabi tushunchalarga faqatgina diniy birlamchi manbalarga tayanib sof ma’lumotlarni berish mumkin. Bu ta’rif va tavsiflar asosida jannat va do’zax esxatologiyasi kabi yo’nalishlar shakllangan. Shunday ekan, mazkur dissertatsiyada ilmiy nazariy xulosalar chiqarish vositasida diniy ta’limotlarning sof talqinini ma’lum bir nuqtaga jamlash kishi ongidagi tarqoqlik va beqarorlikka barham beradi.

### **O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Zardushtiylik dini va “Avesto” kitobi?
2. Yahudiylikda Tavrot va Talmud?
3. «Qadimiy Ahd» va «Yangi Ahd».

### **Adabiyotlar:**

1. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Mashudiy // Tanlangan asarlar. V tom. Birinchi kitob. — T., 1973. 2.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar. I tom. - T., 1968.
3. Mo'minov A., Yo‘ldoshxo‘jayev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. - T.: Mehnat, 2004.
4. Мюллер М., Вундт В. От слова к вере. Миф и религия (История религии). - М.: Изд-во Эксмо; Санкт-Петербург: Терра Фантастика, 2002.
5. Пилкингтон С. Иудаизм / Пер. с англ. Е.Г.Богдановой. - М.: Фаир-Пресс, 2000.
6. Религиоведение. Хрестоматия / Пер. с англ., нем., фр. Сост. и общ. ред. А.Н.Красникова. — М.: Книжный дом «Университет», 2000.
7. Религиоведение: хрестоматия /сост. В.Б.Рожковский, Д.Л.Устименко. — Ростов на Дону: Феникс, 2009.
8. Тора (Пятикнижие Моисеево). / Под. общ. ред. проф. Г.Брановера. — Иерусалим, Москва: Шамир, 1993.

### **3–MAVZU: Qur‘onshunoslik va hadisshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlar**

#### **Reja:**

1. G‘arbiy Yevropada sharqshunoslik fanining paydo bo‘lishi
2. Yevropada sharqshunoslik markazlari
3. Yevropada dinshunoslik fanining paydo bo‘lishi
4. Yevropada Qur‘onshunoslikka oid tadqiqotlar.

**Tayanch so‘zlar:** Islomshunoslik, sanskrit, Sharq uyg‘onish davri, tarjima

“G‘arb sharqshunosligida dinshunoslik masalalari” maxsus kursning maqsadi – dinshunoslik fanining shakllanishida G‘arb sharshunoslarning amalga oshirgan ishlari, G‘arb mamlakatlari olimlarining dinshunoslikni o‘rganishdagi yondashuvlari, g‘arb dinshunosligida o‘rganilayotgan va tadqiq etilayotgan ilmiy muammolar bilan tanishtirishdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilangan: Sharqshunoslik markazlari tarixini, G'arbiy Yevropada sharqshunoslik fanining paydo bo'lishi va rivojlanishini; asosiy sharqshunoslik maktablarida dinshunoslikka oid mavzularni; g'arb va sharq olimlarining dinshunoslik sohasida bildirgan fikrlarini; Yevropa va AQSh dinshunoslik markazlarini; dinshunoslik sohasida yozilgan xorijiy olimlarning asarlarini; g'arb olimlarining dini o'rganishdagi uslublarini o'rganish va tadqiq etish.

“G'arb sharqshunosligida dinshunoslik masalalari” maxsus kursning predmeti va o'rganish ob'ekti. Maxsus kursning maqsadi va vazifalari. O'zbekistonda dinga nisbatan munosabatning tubdan o'zgargani, diniy, xususan, islomiy qadriyatlarni tiklash yo'lida qilinayotgan katta ishlar haqida. Sharqshunoslik tushunchasi. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tarixi. O'zbekiston sharqshunosligining jaxon sharqshunosligi tizimidagi o'rni. Uzbekistonda dinshunoslik fanining shakllanish bosqichlari. Lekin, universitetlarda kafedralar tashkil qilinib, darslik va o'quv qo'llanmalar yozilib bu ilmni mustaqil fan sifatida shakllanishi XIX asr o'rtalarida G'arbda paydo bo'la boshladi. Sharqda esa, bu jarayon 1949 yildagina Dirozning sa'y-harakatlari natijasi o'laroq yuzaga keldi.

So'ngi yillarda yurtimizda ham bu ilmga nisbatan qiziqish bir muncha oshdi. “Dinlarni qiyosiy o'rganish” universitet va institutlar o'quv dasturiga fan sifatida kiritilgani buning yorqin misolidir. Bugungi kunda, dinlarni tarixiy, psixologik va shar'iy nuqtai nazardan qiyosiy o'rganish borasida qator izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, “Beruniyning qiyosiy dinshunoslik faniga qo'shgan hissasi”, “Maks Myullerning G'arb qiyosiy dinshunosligida tutgan o'rni” borasidagi tadqiqotlar misol bo'la oladi.

XVIII asrdan boshlab Yevropa fani dinshunoslikka oid nazariy va amaliy bilimlarni to'plash borasida muayyan yutuqlarga erishdi. Aynan shu paytda Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo dinlarini o'rganish jadal sur'atlarda boshlandi. G'arb islomshunosligi shakllandi, bir qator xolis ilmiy asarlar yaratildi.

XVIII ikkinchi yarmi —XIX asrning birinchi yarmida to'plangan faktologik material hamda tadqiqotchilar asarlarida ko'tarilgan nazariy muammolar gumanitar ilmning yangi sohasi – Dinshunoslik fanining shakllanishiga zamin yaratdi. XIX asrning ikkinchi yarmida falsafa, antropologiya, etnografiya, arxeologiya, tilshunoslik, qiyosiy mifologiya hamda folklorshunoslik fanlari kesishgan nuqtada paydo bo'lgan Dinshunoslik avval boshidan dunyodagi dinlarni xolis ilmiy tadqiq qilish maqsadini o'z oldiga qo'ydi.

Bu soha mutaxassislari faqat sinchiklab tekshirilgan, sinab ko'rilgan empirik ma'lumotlarga asoslanish lozimligini, bu faktlarni sharhlashda ratsionalistik usulni qo'llash zarurligini alohida ta'kidlaganlar. Mana shu asosdagina din rivojlanishi va amal qilishi umumiy qonuniyatlarini topsa bo'ladi, deb hisoblaganlar.

Din to'g'risidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarning shakllanishida Matteo Rikki (1552-1610), Jozef Lafito (1681-1746) kabi missionerlarning, shuningdek frantsuz ma'rifatparvari Sharl de Bross (1709-1777) xizmatlarini e'tirof etish lozim.

M.Rikki Xitoyda missioner sifatida mamlakatga boradi hamda bu mamlakat xalqining diniy tasavvur va marosimlarini o'rganadi. Natijada Konfutsiy dini bilan xristianlik o'rtasida ancha-muncha yaqinlik bor ekanini aniqlaydi.

J.Lafito asarlari orqali Yevropa ilmiy jamoatchiligi Shimoliy Amerika indeetslarining diniy qarashlari va urf-odatlaridan boxabar bo'ldi.

Sharlʼ de Bross Gʻarbiy Afrikaning fetishistik tasavvurlari haqida ilmiy asarlar eʼlon qiladi.

E.Taylor qalamiga mansub “Ibtidoiy madaniyat” asarida ruhlarga boʻlgan ishonch-eʼtiqod, yaʼni animizm nazariyasi asoslab beriladi. Shu oʻrinda aytish kerakki, animizm atamasi ayrim tadqiqotchilar eʼtiroziga sabab boʻlgan. Xususan, sovet rus tadqiqotchisi I.A. Krivelev bu tushunchani “polidemonizm”, yaʼni oʻplab demon – ruhlarga eʼtiqod qilish tarzida berilsa maqsadga muvofiq boʻladi, deb fikr bildirgan. Biroq, bu fikr dinshunoslikda qoʻllab-quvvatlangani yoʻq.

Zamonaviy dinshunoslikning fan sifatida shakllanishiga turtki boʻlgan omillardan biri Gʻarbda Sharq tillarining, birinchi navbatda qadimgi hind tili – sanskritning oʻrganilishi boʻldi.

Uilyam Djons (1746-1794), sanskritni yevropaliklar tillari bilan solishtirib, bular orasida oʻxshashliklar juda koʻp ekanini aniqladi. Uning xulosasiga koʻra, yevropa tillari hamda sanskrit bitta til oilasiga mansub. Bunday solishtirma oʻrganish til sohasidan soʻng mifologiya sohasiga tatbiq etildi. Natijada, hind, grek va rim mifologiyalari orasida ham yaqinlik mavjudligi aniqlandi, ayni paytda Qiyosiy filologiya faniga asos solindi.

Nemis sanskritshunosi Frants Bopp (1791-1867) asarlari faqat filologiya, mifologiya emas, hozirgi dinshunoslikning ravnaqiga ham munosib hissa boʻlib qoʻshildi.

Frantsiyada sharqshunoslarning yetakchisi Ejen Byurnuf (1801-1852) boʻlib, u qadimgi pali va zend tillarini mukammal oʻrgandi, hind va eron mifologiyasini tadqiq qildi hamda qadimgi hind matnlarini tarjima qilib, asarlar yozdi.

Sharqqa boʻlgan ilmiy qiziqishning kuchayishi taʼsiri ostida Parijda 1814 yili sanskritshunoslik kafedrasini ochildi, 1822 yili Osiyo jamiyati tashkil etildi.

Jan Fransua Shampolʼon (1790-1832) tomonidan Misr ierogliflari shifrining topilishi Yevropa ilmiy doiralarida haqiqiy sensatsiya boʻldi. Misr xatini oʻqishga musharraf boʻlinishi Qadimgi Misr dinini tadqiq etish, binobarin Injilda keltirilgan ayrim tarixiy maʼlumotlarni tekshirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

XIX asrning birinchi yarmida Georg Fridrix Kreytser (1771-1858), Gotfrid German (1772-1848), Jozef fon Gyorres (1776-1848) kabi yevropa olimlarining diqqati mifologiyani tadqiq etishga qaratildi. Gyorres oʻz asarida Yevropa sivilizatsiyasining beshigi Hindiston ekani haqidagi fikrni olgʻa surdi, barcha diniy va afsonaviy (mifologik) anʼanalarning ildizi shu qadimiy oʻlkaga borib taqalishi gʻoyasini maydonga tashladi.

Kristian Gotlib Geyne (1729-1812) va Karl Otfrid Myuller (1797-1840) Qiyosiy mifologiyaning bu yoʻnalishiga qarshi chiqdilar.

Yevropadagi romantik harakat taʼsiri ostida aka-uka Grimm – Yakob (1785-1863) hamda Vilʼgelʼm (1786-1859) xalqlarning ogʻzaki ijodida, ajoyib ertaklarda va dostonlarda maʼjusiy xudolar toʻgʻrisida qadimgi mif va tasavvurlar izlarini topish mumkin, deb hisobladilar. Oʻzlari ham ajoyib ertaklar yozdilar.

Xalq ogʻzaki ijodi – folklorni mukammal oʻrganganlardan yana biri Vilʼgelʼm Mannxardt (1831-1880) boʻlib, ziroat, yaʼni dehqonchilikka oid marosimlarni oʻrgandi va dinshunoslikda qishloq xoʻjaligi ibodatlarining ilmiy tadqiq etilishini

boshlab berdi. Uning asarlari ko'plab dinshunoslar, birinchi navbatda Jeyms Frezer (1854-1941) ilmiy izlanishlariga turtki bo'ldi va katta ta'sir ko'rsatdi.

Rossiya dinshunoslik rivojiga Yu.P.Frantsev, I.A.Kryvelev, S.A.Tokarev, shuningdek rus orientalistlari (sharqshunoslari) bo'lmish Bartold, Bertels, Tolstov, Krachkovskiy kabi olimlar katta hissa qo'shdilar.

XIX asr oxirlariga kelib Yevropa va Amerikaning ko'pgina universitetlarida dinlarni qiyosiy o'rganish kafedralari tashkil qilinib, dinlarni tarixiy, psixologik, sotsiologik va falsafiy nuqtai nazardan qiyosiy o'rganish borasida ma'ruzalar o'qila boshlandi. Misol tariqasida, 1873 yil Jeneva universitetining Ilohiyot fakul'tetida "Dinlar tarixi va psixologiyasi" kafedresi, 1876 yil Gollandiyada ilohiyot fakul'tetlari tarkibida "Dinlar tarixi" bo'yicha to'rtta kafedra tashkil etilganini keltirib o'tish mumkin. Bundan tashqari, Manchestr, London, Garvard, Boston, Leyden, Amsterdam, Berlin, Leyptsig kabi universitetlarda ham dinshunoslik kafedralari va ilmiy tadqiqot markazlari tashkil etildi.

Bu jarayon Rossiya Federatsiyasida biroz o'zgacha kechgan. 1904 yildan to 1925 yilgacha Peterburg universitetining geografiya fakul'tetida dinshunoslik bo'yicha ma'ruzalar o'qilib, keyinchalik uzoq muddatga barcha kurslarda bu fanni o'qitish taqiqlangan. Faqat, 1946 yilga kelib Leningrad Davlat universiteti falsafa fakul'teti professori Serebryakov tashabbusi bilan qayta tashkil etildi. Serebryakov fakul'tetga zamonasining yirik dinshunoslari, shu jumladan Leningrad dinshunoslik maktabi asoschisi, falsafa fanlari doktori M. I. Shaxnovich (1911–1992)ni jalb qiladi.

Yevropada dinshunoslik borasida qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Masalan, 1897 yilda Stokgolmda dinshunoslik bo'yicha ilk kongress, 1900 yilda Parijda dinlar tarixi bo'yicha konferentsiyalar bo'lib o'tdi. XIX asr oxirlariga kelib dinlarni qiyosiy o'rganish borasida jurnallar, entsiklopediyalar yozila boshlandi. Masalan, P.Gastingsning "Dinlar va etika" entsiklopediyasi shular jumlasidandir.

XX asrning birinchi choragida qiyosiy dinshunoslik ilmi intensiv ravishda taraqqiy etib, nafaqat olimlar, balki keng jamoatchilikka ham mashhur R. Otto, G. van der Leuv, I. Vax, V. K. Smit, R. Pettatsioni, M. Eliade, N. Smart, G. Videngren, U. Djejms, N. D. Fyustel' de Kulanj, T. Flurnua, S. A. Tokarev, B. A. Rybakov kabi olimlar bu borada ilmiy izlanishlar olib boradilar.

Dinlarni qiyosiy o'rganish G'arbiy Yevropa va Amerika universitetlarida katta qiziqish bilan o'rganila boshlaganidan so'ng, ko'pgina mashhur tadqiqotchilar, shogirdlar yetishib chiqdi, bu esa dinshunoslik soxasida alohida maktab yo'nalishlarini yuzaga keltirdi. Misol tariqasida tarixshunos olim Ioaxim Vax tomonidan XX asrning birinchi choragida yuzaga kelgan, dinshunos doiralarda anchagina shuhrat qozongan "Chikago" maktabini keltirib o'tish mumkin.

Shu asnoda, bir qancha ilmiy izlanish yo'nalishlari paydo bo'lib, ular bir metod asosida tadqiqot olib borayotgan yoki bir hildagi ilmiy muammo doirasida izlanishda bo'lgan olimlarni birlashtirdi. Bunday yo'nalishlar qatoriga "Diniy marosimlar"ni keltirish mumkin. Bu borada umumiy holatda izohlangan Samuel Xukning 1933 yilda chop etilgan "Mif i ritual" asari misol bo'la oladi. Dinshunos olimlarni o'zaro hamkorliklarini yanada oshirish maqsadida 1950 yili "Xalqaro dinlar tarixi" assotsatsiyasi tashkil etilib, unda turli davlatlardan dinshunos olimlar

jalb qilingan. Bu assotsatsiya tomonidan muntazam ravishda kongresslar o'tkazilib, 1950 yildan bo'yon "Numen" nomli jurnal chop etib kelinmoqda .

Shu zaylda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropada yangi fan – dinlarni qiyosiy o'rganish – mustaqil yo'nalish sifatida yuzaga keldi.

XIII asrning ikkinchi yarmi boshlaridayoq islom g'arb xalqlarining, hususan, Sharqiy Yevropa (Ispaniya, O'rtayer dengizi orollari, Bolqon, Xazor o'lkasi, Bolgariya, Oltin O'rda, Qora dengizning shimoli, Qrim, shimoliy Kavkaz) xalqlarining ajralmas tarixiga aylanib qoldi. G'arbiy Yevropada islom ta'limotining tarqalishi esa mazkur dinning birlamchi manbasi bo'lgan Qur'onni tadqiq qilishnishi hamda tarjima va nashr ishlarida o'z aksini topadi. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, amaliy jihatdan ayni bir vaqtning o'zida Qur'onni o'rganuvchi ikki o'ziga xos bo'lgan islomiy va noislomiy maktablar vujudga keldi .

Umuman, Qur'onni noislomiy uslubda o'rganish uzoq tarix davomida turli sabablarga ko'ra bir qancha bosqichlarni bosib o'tdi. Dastlabki bosqich VIII-XVII asrlarni o'z ichiga qamragan bo'lib, unda islomni, xususan Qur'onni o'rganuvchilarning aksariyat qismini xristian ruhoniylari yoki ularning buyurtmalari asosida o'rganuvchi shaxslar tashkil etar edi. Mazkur bosqichning yuzaga kelish sababi esa yuqori sur'atlarda tarqalib borayotgan islom tamadduni va uning yon atrofdagi sivilizatsiyalarga qaratilgan diniy, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy ulkan ta'siri oqibatida vujudga keldi.

Arab madaniyati qo'shni sivilizatsiyalarga katta ta'sir o'tkazdi. O'rta asrlarda Islomning Yevropaga ta'siri ko'p rejali va turli tomonlama edi. U hayotning turli jabhalarini o'ziga qamrab olgan, xususan, maishiy, ilmiy, diniy, adabiy, texnikaviy, falsafaga oid, savdo-iqtisodiy va jamiyat madaniyatiga taaluqli ishlarda yaqqol aks etar edi .

Islom dinini tanitgan arab istilolaridagi erishilgan muvaffaqiyat xristian mualliflarini musulmonlarining islomdagi maqsad-muddaolari haqidagi asosiy ma'lumot beruvchi, deb hisoblanadigan muqaddas kitob Qur'onga e'tibor qaratishga undadi. Xristian solnomachilari arab istilosi davrida o'z maqsadlari yo'lida imkoni boricha Qur'ondan yoki uning ma'nolari bayonidan iqtibos keltira boshladilar. Ana shunday Qur'on bilan yaqindan tanish shaxslardan biri Suriyada yashagan va ruhoniy bo'lgunga qadar Umaviylar qo'l ostida faoliyat olib borgan Ioan Damaskin (vaf. 750 y.) edi. Hijriy ikkinchi asrda ilk bor Ioan Damaskin islom ta'limoti masalalariga to'xtalib o'tilgan «Bid'atchilar haqida kitob», «Caratsinlar va nasroniylar orasidagi muzokara» asarlarini yozib qoldiradi . Ummaviylarni «yozuvchi shaxslar»ga nisbatan olib borayotgan mo'tadil siyosati sababli va arab istilolari davridagi qo'l ostilaridagi xristian diniga ko'rsatilgan chuqur ishonch Ioan Damaskinning munozarali asarini keskin diniy-siyosiy tusda baholamadi. U o'z asarida islomni bida't hisoblab, musulmonlarni aqidaviy xato yo'ldaliklari haqida bahs-munozaraga kirishar ekan, o'z navbatida xristianlar ham Bibliyani noto'g'ri talqin qilishda ayblaydi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, X asrda Vizantiyada Qur'onning yunon tiliga tarjimasini mavjud bo'lgan. Mazkur tarjimani imperiyaning lotin tilida so'zlashuvchilar mintaqasiga mansub bo'lgan, ijtimoiy kelib chiqishi arablarga borib taqaladigan shaxs amalga oshirgan.



Shuningdek, musulmonlarga qarshi qaratilgan Suriya munozarachilari bitiklarida (masalan: Yakovitlar yepiskopi Dionisiya bar Salibiy (vaf.1171 y.)) goh uzun, goh qisqa tarzda Qur'onga tegishli bo'laklarni yoza boshlaydi.

Sharq musulmon olimlarining asarlarini tarjima qilish ishlari dastlab X asrda boshlangan bo'lsa, XVIII asrga kelib esa keng rivojlanib ketdi.

Tez sur'atlarda arab tilidagi asarlar tarjimasi sonining keskin ortishi 1085 yili xristianlar tomonidan Toledoning zabt etilishi bilan bog'liq bo'lib, muvaffaqyatdan ruhlangan Yevropaliklarning arab-musulmon madaniyatiga qiziqishi yuksala boshladi. Ayni shu paytda davr saviyasiga mos ravishda tarjima qila olish iqtidoriga ega shaxslar faoliyat olib bordi. Angliyadan Kettonlik Robert, arxidekon Pamplon va Xerman Dalmatiskiy Ispaniyada astronomiya va metralogiya bo'yicha arab tilidagi asarlarni tarjimasi bilan shug'ullanishadi.

Ma'lumki, salib yurishari Yevropa ziyolilari o'rtasida islom diniga bo'lgan qiziqishni orttirdi. Shubhasiz, islom haqida bir qancha ma'lumotlar avvalda Vizantiya manbalarida va Ispaniyada musulmonlar va xristianlarning aloqalari tufayli tez-tez uchrab turgan. Mazkur ma'lumotlarda to'g'ri va noto'g'ri xabarlar bir-biri bilan qarishib ketgan edi. Arablarga nisbatan Muhammadga sig'inuvchi gumrohlar deb qaralsa, Muhammad(s.a.v.)ning shaxsiyati haqida esa "afsungar" yoki "iblis" sifatida ta'riflanardi. Islom dinini esa jinsiy erkinlik va axloqsizlikni qo'llab-quvvatlaydigan din sifatida e'tirof etishardi.

Yevropa ikkinchi salib yurishiga tayorgarlik ko'rayotgan 1142-1143 yilda Klyun ibodatxonasi abbati Petra Dostopochten (Petrus Venerablis 1092-1156 y.) buyrug'iga binoan «Caratsin Muhammad» nomli dastlabki lotin tilidagi Qur'on tarjimasini amalga oshirishdi. Ilk o'rta asrlarda g'arbiy Yevropada istiqomat qiluvchilar Vizantiyaliklardan o'rganishgan «Sarratsin» so'zini tilga og'ir kelmasligi uchun «saratsin» shakliga keltirishadi. Mazkur so'zga izoh berib, payg'ambar Ibrohimning ayoli «Soraning farzandlari» degan shubhali tushunchani shakllantirishdi. Mazkur so'zning izohini mutlaq to'g'ri, deb aytib bo'lmaydi. Zero «Arabia felex» ya'ni, Arabiston yarim orolining janubida vujudga kelgan dastlabki qabilalar bilan bog'liq bo'lgan dastlabki millat Ibrohimning ayoli Soradan emas, uning Misrlik joriyasi Hojar farzandlaridan tarqalgan edi. Modomiki mazkur millat Hojar bilan bog'liq ekan ularni «Caratsinlar» emas, «Xojariylar» deb nom olgan bo'lardilar. Bu esa noto'g'ri etimologik yondashuv ta'sirida vujudga kelganligi aniq haqiqat. Boshqa yana bir izohda ushbu so'z cho'llik uyushgan qaroqchilar to'dasi (arab tilidagi «sharika» ya'ni birlashma so'zidan kelib chiqqan holda) degan ma'noni anglatadi, deb mulohaza yuritishadi. Yana bir talqinga ko'ra «Caratsin» so'zi «saraq» ya'ni o'marish yoki «sarraq» ya'ni firibgar, muttahaam so'zlariga bog'liq hisoblanadi. Nima bo'lgan taqdirda ham mazkur so'zni arablarga qo'llanilgan tahqiromuz atama sifatida tushunishimiz mumkin.

Pyotr Dostopochtyonniy tuzgan, shuningdek unga Petr Toledskiy hamda Puatelik Petrlar kelib qo'shilgan tarjimonlar guruhi yana bir qator hadis to'plamlarini tarjima qilishadi. Xususan, payg'ambar va yahudiy hamda ikki munozarachi haqidagi «Masoil Abdulloh bin Salom» rivoyatlari tarjima qilinadi.

Mazkur tarjimalar zamiridagi asl maqsad Pyotr Dostopochtenniyning – "eklesiya militans" (ecclesia militans) cherkovi mavqeidan turib bu borada o'ziga xos to'plam tuzish hamda islom haqida asar yozgan dastlabki Yevropalik sanalgan

Pedro Alfonsa (vaf. 1140) mashaqqat bilan islom haqida iliq tushunchalar uygʻonishiga sabab boʻlgan taʼlimotini qoralash maqsadi olgʻa surilgan. Ular Yevropada islom haqida fikrlarni shakllantirishda salmoqli oʻrinni egallashgan edi. Klyun ibodatxonasi kutilmaganda Qurʼonni ilk bor lotin tiliga tarjima qilingan maskan sifatida eʼtirof etiladigan boʻlib qoldi. Oʻsha davrda u xristian dunyosining islomga qarshi turuvchi muhim mafkuraviy markazlaridan biri edi.

Faqatgina 62 yildan soʻng xristianlar shimoliy Afrikani qaram qilganlaridagina musulmonlar tomonidan toʻlangan tovon pulini ibodatxonaga qaytarish imkoniyati vujudga keladi.

Mazkur asr soʻnggida Klyun ibodatxonasi ruhoniylari islomga qarshi kurashda xristianlar kuchini birlashtirish uchun koʻplab saʼy-harakatlarni amalga oshiradilar. Pyotr Dostopochtenniyning aytgan gaplari orasida quyidagi fikrlarni uchratish mumkin: “Men sizlarning ustingizga doimgidek qurol vositasida emas, balki soʻz vositasida, zaxirada toʻplab qoʻygan kuchim bilan emas, aksincha, idrokim bilan, yomon koʻrish bilan emas, bilʼaks sevgi bilan hujum etaman”. Mazkur soʻzlar katta gʻoyaviy kurash boshlanishidan yaqqol darak berar edi.

Ikkinchi marotaba Qurʼonning tarjimasi 1209-1210 yili Mark Toledskiy tomonidan arxiyepiskop Don Rodrigo Ximensa de Rada (tah. 1170/1180-1247 y.) buyrugʻiga binoan amalga oshiriladi. Mazkur buyurtma dolzarb siyosiy va missionerlik maqsadlarini oʻz ichiga qamrab olgan edi. Mark Toledskiy tarjima ishlarida 114 ta suradan iborat boʻlgan asl matnni 124 ta sura holiga keltirib toʻgʻrilashga uringan Kettonlik Robert va uning yordamchilaridan farqli ravishda tarjimani soʻzma-soʻz qilishga va oʻzidan xech narsa qoʻshmaslik maqsadida, sura va uning nomlarini saqlab qoldirdi. Mark Toledskiy oʻz asariga yozgan katta kirish qismida oʻzidan avvalgi tarjimalar haqida bir ogʻiz ham soʻz aytmay ketadi. Bunga esa, uning Kettonlik Robert va Xerman Dalmatiskiy ishlarini maʼqullamasligi sabab boʻlishi ehtimoldan holi emas.

Keyinroq ushbu tarjimani Robert Xamfriy Prido (1648-1700 y.) shunday baholaydi: “Bu axir asl manbaning bemaʼni talqiniku ... uning mazmuni shu qadar noaniqki biror kishi tarjimaning asl manbaida nima haqida gapirilganini tushunishi dargumon” .

XII asrda yozilgan asar 1543 yili Bazel shahridagi mashhur Oporina matbaʼsida nashr qilindi. Asarni yozilganiga toʻrt yuz yil boʻlishiga qaramay hanuz ahamiyatini yoʻqotmagan edi. Mazkur nashr olimlar davrasida lotin tilida Bibliandr nomi bilan mashhur Syurixlik ilohiyotshunos Teodor Buxman tomonidan qayta tahrir qilindi. Asar «Saratsinlar xokimi Muhammadning toʻliq hayoti va taʼlimotining bayoni, uning qatʼiy buyurgan qonunlari va Qurʼon» sarlavhasi ostida tayyorlangan boʻlib, uning tarkibida Bibliandrning «Apologiya», Lyuterovskiyning «Praemontio» asari va yana bir qator matnlar, xususan Rikolda da Montekroche hamda Nikolay Kuzanskiyning qator asarlari oʻrin olgan. Oxir oqibat yaratilgan barcha asarlar jamlanib «Muhammadiylarga qarshi asarlar jamlanmasi» foliant sifatida 1543-1550 yillari nashr qilindi .

Ilk lotin tilidagi tarjimalarning barchasi mohiyatan matnni boshqa maʼnoda talqin qilish bilan birgalikda asosiy maqsad musulmonlarga tegishli boʻlgan muqaddas kitobning asossiz ekaniga eʼtiroz bildirishdan iborat edi. Ayni shu sabab xristianlarning raddiyalari koʻpincha xatolarni keltirib chiqargan. Xristian

mualliflari Qur'onga nisbatan noxolisona baho berib «iblisona qonunlar», «zulm kitobi» atamalaridan musulmonlarga qarshi bo'lgan munozaralarda ko'p bora ishlatishlariga qaramasdan musulmon olimlari buning aksi o'laroq munozara maqsadida xristianlarning muqaddas kitobini tadqiq etishga targ'ib etganlarini tarixda guvohi bo'lish mumkin.

Qur'onning Yevropa tillaridagi tarjimalari ilk bosqichi haqida A.Ye.Krimskiy shunday deydi: "Baxtga qarshi Rim papasi ularning barchasini bir nusxa ham qoldirmay yoqib tashladi, hattoki ular nashr qilingan yillari ham noma'lumligicha qoldi. Ma'lum haqiqat esa ularning Venetsiyada tarjima qilingani xalos".

Umuman, g'arbiy Yevropada 1311-1312 yillari islomshunoslikka asos solinishi Yevropada islomshunoslik ilmiy faoliyatini boshlagan ko'plab olimlarning yetishib chiqishiga turtki bo'ldi. Bu haqda Ali an-Namla «Zohira al-istishroq» kitobida ta'kidlab o'tadi. Ehtimol, shu sababli "sharqshunoslik" deyilganda odatiy tushunchaga ko'ra musulmon bo'lmagan shaxsni sharq xalqlarini dini, madaniyati, qadriyat va an'analarini o'rganish deb tushuniladi. Musulmon olimlari esa, sharqshunoslik g'arbda islomshunoslikning vujudga kelishi degan munosabat bildiradilar. Abdulloh an-Na'im o'zining «al-Istishroq fi-s-siyra an-nabaviya» kitobida islomshunos tadqiqotchilar e'tibor qaratgan asosiy omil diniy-siyosiy maqsadlar edi, deb ta'kidlab o'tadi. Ular islom dunyosidagi musulmon bo'lmagan davlatlarda siyosiy boshqaruvni mustahkamlash uchun faoliyat olib borishdi. Shuningdek, musulmon jamoasidagi madaniy aloqalarni zaiflashtirib, diniy savodi past musulmonlar orasida shubha va gumonlarni tarqatish ishlarini olib borishdi. Islomshunoslik tadqiqotlari natijalari imperialistik siyosatga ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda missionerlik kayfiyatidagi diniy guruh faoliyatini boshladi. Bir necha islomshunoslarning asarlari, xususan, sovet ittifoqidagi yozilgan asarlar bir taraflama hatto noilmiy asarlar borligiga guvoh bo'lish mumkin. Shunga qaramay ular orasida shunday tadqiqotlar ham mavjudki ular ilmiy uslubiyatga javob beradi hamda o'zida katta qiziqishga sabab bo'ladigan chuqur tadqiqotlarni ham taqdim etadi.

1453 yili Konstantinopolning qo'ldan boy berilishi va tez sur'atlarda turklar hujumining xavfi qo'shni madaniyatga qiziqishni oshirdi hamda renessansning g'olibona g'oyasiga yuzma-yuz qilib qo'ydi. Ushbu mag'lubiyat endilikda qarshilarida sahroviy arablar o'rniga turklar pozitsiyani egallaganligidan dalolat berar edi. Aynan ushbu almashinuv hamda Yevropaning uyg'onish davri ostonasida ekani Qur'onga bo'lgan yondashuvni bir muncha o'zgarishiga sabab bo'ldi. Ushbu davrga kelib Qur'on Yevropaning qator tillariga tarjima qilina boshlanadi. Biroq bu bilan qarshi tarafning g'oyaviy kurashlariga barham berilgani yo'q. Har ikkala taraf o'zlari olg'a surayotgan fikrlarida sobit qolish bilan birgalikda, ko'plab kitoblarni nashr qila boshladilar. Ushbu davr g'arbiy Yevropada Qur'onni o'rganish tarixining yana bir bosqichi eshiklarini ochib berdi. Qur'onning tarjimasini va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish bir-biri bilan baqamti ekani, uni o'z ichiga olgan bilimlarni yuzaga keltirdi. Biroq, sir emaski ushbu qiziqish raddiya berish va dushmanlik ruhidagi umumiy e'tibor edi, xalos. G'arbiy Yevropaning qur'onshunoslari bir jihatdan xristianlik aqidalarini himoya qilsalar, ikkinchi jihatdan payg'ambar Muhammad(s.a.v.) va unga berilgan kitobga qarshi raddiyalar berar edilar. Xuddi shu turdagi kitoblardan biri rohib Rikaldo da Monte

Kros tomonidan yozilgan edi. U XIII asr oxirlarida hayotining bir muncha qismini sharq o'lkalarida missionerlik bilan o'tkazib, ayni shu vaqtdan foydalangan holda musulmon olimlari bilan bahs-munozara ishlarini olib boradi. Kitob (Qur'on)da zikr etilgan voqe'alarga tegishli biror tarixiy uzviylik yo'qligida va nomuflilikda ayblaydi. Kitob keng omma e'tiboriga taqdim etilib XVI asr boshlariga qadar bir necha marotaba chop etiladi. Mazkur kitobni Martin Lyuter nemis tiliga tarjima qildiradi. Nikolay Kuzanskiy (1401-1464 y.) Qur'onning Injildagi haqiqatlarini kashf qilish uchun o'qib o'rganishni tavsiya qildi. Uning do'sti fransiyalik patsifist Xuan de Segoviya (1400-1458 y.) 1440 yili Rim papasiga qarshi harakat yetakchisi etib saylanadi va islomni buzib ko'rsatishni, xususan bir qator Qur'on tarjimalari orasida Kettonlik Robert tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarni qoralaydi. 1455 yili Savoyadagi Ayton ibodatxonasida Yas bin Jabir bir necha faqihlar ko'magida Qur'onni lotin va kastiliya tillariga tarjima qilish ishlarini boshlaydi. Shu bilan birgalikda ularning zimmalariga Qur'ondan xristianlar qabul qila oladigan matnlarni ajratib olish topshirig'i qo'yiladi. Bu esa xristianlikda Islom ta'limoti o'rtasidagi munosabatlarning yumshashidan darak berar edi.

Uning kelgusi tarjimasida Ispaniyada 1518 yili kardinal Edijo da Viterbo buyurtmasiga binoan Pikoning qarashlari muxlislaridan biri bo'lgan Ioxan Gabriel Terrolensis tomonidan amalga oshiriladi. Milan shahrida mazkur tarjimaning nashr qilinmagan birgina qo'lyozmasi saqlanib qolgan. Agarda ushbu tarjimani deyarli e'tiborsiz qolganini hisobga olsak, Kettonlik Robert va Xerman Dalmatitskiyning tarjimalariga omad kulib boqqan, deya aytishimiz mumkin. Mazkur tarjimaning keyingi tarixi Yevropada XV-XVII asrlarda qamrab olgan ulkan siyosiy-mafkuraviy va madaniy harakatlar bilan bilan uzviy bog'lanib ketadi. Bu ishga ko'plab xristian faylasuflari, ilohiyotshunoslari hamda munozarachilari kirishadilar.

J.Skaliger (1540-1609 y.), T.Erpenius (1540-1624 y.), A.Relan (1676-1718 y.) kabi ilg'or sharqshunoslari ham 600 yildan beri foydalanib kelingan tarjimalar ochiq-oydin maqsadga muvofiq kelmasligiga e'tiborlarini qaratganlar.

XV-XVII asrlar islohotlar davri bo'lishi bilan bir qatorda yevropaliklar va Usmoniy imperiyasi bilan qonli kurashlar davri ham hisoblanadi. Vena shahri qamali yevropaliklarni 1453 yildagi Konstantinopolni ishg'ol qilingan vaqtdagidek u qadar larzaga solmadi. Endilikda arablar o'rnini turklar kelib egallagan edi. Binobarin, Yevropada islom qiyofasini o'sha vaqtda turklar gavdalantirib turar ediki, xattoki unda Qur'on «Turklarning muqaddas kitobi» (Die turksche Bible) nomi bilan atalgan kitob yoziladi. Mazkur tarjimani David Fridrix Megerlin 1776 yili nemis tiliga arab tilidan bevosita tarjima qiladi. Ayni ushbu muhitda, Pogonini Briksensis shirkati Yevropada tijorat maqsadida dastlabki arab yozuvidagi Qur'onni Venetsiyada 1530 yili nashr qiladi. Lekin unda ko'psonli xatolar mavjud edi. Natijada bu nashr muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Ushbu davrda islom va uning ta'limotiga qarshi qaratilgan tashabbus va munozaralar kurashi protestant ilohiyotchilari va ularning ijtimoiy-siyosiy masalalari yoziladigan publitsistikasiga o'tadi. Islom va Usmoniy turklar haqidagi diniy-madaniy bag'rikenglik bilan xarakterlangan o'ziga xos ensiklopediya 1543 yili Bazel shahrida nashr etildi. Uning publikatsiyasi shaxsan Martin Lyuterning aralashuvi bilan amalga oshiriladi. Kitobning ilovasida papa Piya II (1458-1464 y.) ning Usmoniy turklar sultoni

Mexmed II ga xristianlikni qabul qilishga chaqirgan epistoli hamda Lyuter va uning safdoshi Flipp Melanxtonga murojatlari o‘rin olgan.

Buxmanni o‘z asarida keskin bahs-munozara yuritishiga qaramay, u islomni buyuk ish hisoblanmish yakka xudolikni mushriklar orasida keng tarqatganini e‘tirof qiladi. Uning qarashlari o‘zidan qoldirgan yagona qo‘lyozma asarda barcha xristian, yahudiy va musulmonlarga «barchamizning ulug‘ tangrimiz nomi ila» salom va tinchlik tilaklarini aks ettirganligi bilan o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi. Ushbu davrga kelib bu turdagi qarashlar yetarlicha yoyilganligi ma‘lum. Agar Lyuter islomni yahudiylikning bir shakli deb fikr yuritgan bo‘lsa, Rotterdamlik Erazm (1469-1536 y.) va Giom Postel (1510-1581 y.) musulmonlarni yarim xristian sifatida tan olardi.

Shuningdek Qur‘onning musulmon-ispans (alxamido) tiliga o‘girilgan, XV asrga taalluqli tarjimasi parchalari, arab imlosidagi XV-XVII asrlarda tatarlar amalga oshirgan belorus-polyak tilidagi tarjimalari saqlanib qolgan .

Sharq tillaridagi matnlarni chop etish tez sur‘atlarda yuz bergani yo‘q. Islom haqida yozilgan kitoblarning deyarli barchasi yomon ahvolda edi. Mazkur kitoblar gohida islom haqida noto‘g‘ri tasavvurni uyg‘otsa, gohida xaqoratlarga to‘laligi bilan ajralib turadi. XV-XVI asrga kelib bunday turdagi yondashuv o‘zgardi. Ushbu davrga qadar musulmonlar xristian dinini xristianlardan farqli o‘laroq ko‘proq bilishar edi . Umuman olganda XVI asrga kelib g‘arbda islomshunoslikka oid qator kitoblar nashr etildi.

1554 yili Venetsiya inkvizitsiyasi Qur‘on o‘qishni ta‘qiqlab qo‘yadi. XVII asrning boshlarida nemis tiliga italyan tilidan S. Shveyggerom (1551-1622 y.) tarjima qilgan nemischa va gollandcha Qur‘on nusxalari yashirin holda omma e‘tiboriga havola etildi. So‘nggi safar ikki marotaba 1659 va 1664 yillari qayta nashr etilgan.

Ko‘plab yillar davomida Yevropaning mafkuraviy muhiti katolitsizm va reformatsiya harakatlari o‘rtasidagi ichki nizolarni boshdan kechirdi. Har ikkala taraf o‘zini xaq ekanligini isbotlashga urinar va har ikki tomon tarafdorlari «papalik va turklar»ga qarshi chiqar edilar, hattoki ularni «jodugarlik va turklar» nomi bilan atashardi, bu bilan ayni vaqtda islomni ayblashar edi. 1521 yili 15 aprel kuni Sarbona Lyuterning Kasri ibodatxonasining shimoliy darvozalariga ilib qo‘yilgan 95 ruknini muhokama qilib, uni «Qur‘ondan ham illatliroq» deb nomlashdi. Protestant opponentlari uchun Muhammad va Rim papasi «xristianlikka qarshi ikki bosh» bo‘lsada boshqa tomondan islomga qarshi tashviqot ishlarida har ikki tomon birgalikda harakat qilardilar.

Tabiiyki, Qur‘onni o‘rganish uchun tashlangan keyingi qadam XVII asrda ro‘y berdi. 1647 yili Parijda Qur‘onning fransuz tilidagi tarjimasi diplomat va sharqshunos olim Andrea dyu Riye (1580-1669 y. ) tomonidan amalga oshirildi. Mazkur tarjima vujudga kelgan davridayoq ilmiy talablarga javob bermagan va matn tarjimasi jarayonida jumladagi so‘zlarning joyi o‘zgartirilgan va qisqartmalarga yo‘l qo‘yilgan, hamda matn tahlili jihatidan esa uning ishi Bibliandrning nashriga bog‘liqlik tomonlari ko‘p bo‘lgan, shunga qaramasdan tarjima o‘ziga nisbatan katta qiziqishni uyg‘ota oldi. Qisqa muddat ichida Dyu Riyening ishi Parijda va Amsterdamda besh marotaba qayta nashr qilingan bo‘lsa, keyinroq Angliyada (1688 y.), Gollandiyada (1698 y.), biroz vaqtdan so‘ng

Germaniyada va nihoyat Rossiyada (1716 y. ) tarjima va chop etish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

1698 yili ruhoniylar papa Innokentiy XI Lyudovik Marachchi (1612-1700 y.) omma e‘tiboriga lotin tiliga tarjima qilingan va Qur‘onning bir necha arab qo‘lyozmalariga asoslangan kitobini taqdim etadi. Tarjima saviyasini avvalgilariga tenglashtirib bo‘lmas edi biroq, uning shakli keng tarzda yoyilishiga to‘sqinlik qilar edi. Ana shunday saviyadagi tarjima tasodifan aynan Italiyada paydo bo‘lib qolmadi. Zeroki, ushbu yurt uzoq yillar davomida musulmon sharqi bilan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni yaxshi yo‘lga qo‘ygan edi. Bu yerda amaldagi mafkura ta‘qiqlab qo‘ygan, lekin ilmiy qadriyatlarga to‘la-to‘kis javob beradigan boy kutubxona mavjud edi. Nemis protestanti Kristian Reynesius (1668-1752 y.) shunday fikr bildiradi: “Marachchi amalga oshirgan tarjimasi tufayli dunyo yuzini ko‘rgan qulay nashr va unga bag‘ishlangan muvaffaqiyatli kirish so‘zi tashabbusni protestant olimlar tomoniga o‘tkazdi. Marachchining asari Qur‘onni Yevropa tillariga tarjima qilishning yangi bosqichi bo‘lib sanaldi” .

Angliyada ma‘rifatparvarlik harakatlarining bo‘lajak tashabbuskori bo‘lmish J.Seyl (1697-1736 y.) tomonidan al-Bayzoviy, as-Suyutiy, az-Zamaxshariy va boshqa bir qator mufasssirlarning tafsirlariga asoslangan Qur‘on tarjimasi omma e‘tiboriga havola etiladi. Mazkur tarjima va unga nisbatan bo‘lgan dastlabki mulohaza Yevropada Qur‘onni tushunish va o‘rganish saviyasini belgilab berdi. U nemis tiliga (1746 y.), fransuz tiliga (1770 y.), rus tiliga (1792 y.) tarjima qilindi.

Islomni Usmoniylar imperiyasi bilan tenglashtirish fikri chetga sura boshlandi. Yevropalik mualliflarning asarlaridagi bahs-munozara o‘rinlarida islom haqidagi shaxsiy-ilmiy tadqiqotlarda ko‘pincha yonbosish holatlarini kuzatish mumkin. Islomga bo‘lgan qiziqish «Turklar nuqtayi nazari» yoki «Forslar nizomi» kabi tanqidiy asarlarida o‘ziga xos tarzda aks eta boshladi. O‘sha davrda rasmiy katolik yo‘nalishiga qarshi qaratilgan apologetik ruhdagi islomiy asarlarni ommalashtirish avj ola boshladi. Ayni ana shu vaqtdan boshlab deizm diniy-falsafiy oqimi tarafdorlari nazarida islom eng ratsional din sifatida e‘tirof qilina boshlandi. Katolik yo‘nalishi esa buning aksi o‘laroq o‘z ishlarida islomni tanqid qilish uslubidan voz kechmadi. Qur‘onni go‘yo Yevropa qarshisida turgan qo‘rquv sifatida o‘rganish tufayli vujudga kelgan tarjimalar endilikda inkor qilindi. 1793 yili K.Savoriy (1750-1788 y.) Qur‘onning «romantik ruh»dagi tarjimasini amalga oshirdi. Romantizm tarafdorlari ensiklopedik ruhdagi yondashuvdan yiroq bo‘lishga, qadimiylik, injil tarixi va sharqqa uyushtirilgan salib yurishlariga murojat qilishga urunishgan. Mana shu yangi tendensiya maslagida F.R.Shatobriananing musulmon dunyosiga nisbatan dushmanona munosabatda yozilgan «Parijdan Quddusgacha sayohat» asari yozildi. Zeroki, bu ishlarning bari fransuz g‘oyaviy islohotlari bilan aloqador bo‘lgan siyosiy bir reja edi. Vujudga kelgan mustamlakachilik g‘oyalari yevropatsentriзм tendetsiyasini quvvatlovchi sharqshunoslik bilan baqamti ravishda olib borilar edi. A.B.Kazmirskiy (1808-1887 y.) tomonidan amalga oshirilgan Qur‘onning fransuz tilidagi tarjimasi aynan Fransiyaning Jazoirni bosib olish arafasida paydo bo‘ldi. Mazkur tarjima fransuz arabshunoslarining misli ko‘rilmagan asarlaridan biriga aylanib qoldi. E.Uerri (1882-1886)ning to‘rt jilddan iborat mashhur Qur‘on tarjimasi Britaniya qirolligining mustamlakachilik qiziqishiga sabab bo‘lgan, hind an‘analari aks

ettirilgan eng muhim manba rolini o'ynadi. Ayni shunday tarjimalar safiga D.N.Boguslavek va G.S.Sablukovlarning ruscha tarjimalarini qo'shishimiz mumkin.

Chindan ham, XIX asrga kelib yevropaliklar uchun, sharqda oddiy bo'lmagan yangi dunyo bilan tanishish uchun keng imkoniyat eshiklari ochildi. Ularning musulmonlar diyori hayoti haqida, ularning madaniyati va dinlari haqidagi dunyoqarashlari misli ko'rilmagan tez sur'atlarda kengayib ketdi. Musulmon dunyosiga bo'lgan qiziqish endilikda Yevropani amaliy jihatdan ustun bo'lishiga undar edi. Endilikda islomshunoslik – bu mustamlakachilik kurashlari tarixiga uzviy bog'langan mustaqil ilmiy sohaga aylandi.

Qur'onga muqaddas kitob sifatida qarash, uni qiyoslash, aslida Qur'onni o'rganishdagi yagona maqsad bo'lib qolmay, balki siyosiy, diniy va boshqa turli maqsadlarni ham ko'zlar edi.

Qur'onni o'rganishdagi xolis va ilmiy yondashuv nisbatan kechroq, ya'ni Yevropada «Gumanizm» falsafiy oqimi vujudga kelishi bilan paydo bo'ldi. Aslini olganda bu turdagi yondashuv g'arbda cherkov davlatdan ajratilgandan so'ng vujudga keldi deyish mumkin. Avvalda muqaddas sanalgan «Tavrot» va «Injil» kitoblari endilikda tanqidiy tadqiqot predmetiga aylandi. Mazkur kitoblarga qaratilgan yondashuv uslubi Yevropa olimlarini Qur'onni o'rganishlari uchun namuna sifatida xizmat qildi.

XIX asr boshlarida mashhur grammatik, ko'plab darsliklar muallifi Silvestr de Sasi (1758-1838 y.) ning sa'y-harakatlari tufayli islomshunoslar ta'lim olgan Parij sharq tillari maktabi Yevropada arabshunoslik va islomshunoslik markazi sifatida saqlanib qoldi. O'sha davrda Qur'onni tadqiq etishdagi uslubiy yondashuv Germaniyada vujudga kelgan mashhur protestantlar injil maktabi ta'siri ostida shakllandi. Agar ilgari Qur'on «Allohning kalomi» degan yondashuv inkor qilingan bo'lsa, endilikda uni o'rganishdagi uslub o'zgartirilib «yangi ahd» va «qadimgi ahd» matnlariga mos keladigan o'rinlari qabul qilina boshlandi. Bu esa ikki tomonning o'ziga xos yutug'i sifatida e'tirof etildi. O'sha vaqtda qadimgi ahd madaniy g'oyalari ta'siri ostida Qur'on yon atrofdagi o'rab turgan madaniyat va adabiyotdan o'zlashtirilgan kitob sifatida qabul qilindi. Ommaviy madaniyat oqimida vujudga kelgan A.Geyger, K.Gerokning ishlari, G.Vayl, Nyoldeke, X.Xirashveld, Ya.Barta va keyingi Y.Xorovich va uning shogirdlarini amalga oshirgan tadqiqotlari zanjiri Qur'onni tanqidiy o'rganish va tadqiq etishning yangi bosqichni boshlab berdi. Ana shu sabab Yevropada amalga oshirilayotgan diniy-falsafiy tadqiqotlar islomning muqaddas kitobini o'rganishga aks ta'sir etishda davom etdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Germaniyada klassik filologiya masala va metodlarini vujudga kelishi tilshunoslik fanining turli tarmoqlariga, qolaversa, nemis tavrotshunosligiga katta tasir o'tkazdi. Shuningdek XIX asr Qur'onni tadqiq etish ishlarida birinchilik Germaniyalik olimlar qo'liga o'tdi. Gustav Flyugel 1834 yili dastlab Qur'on matnini tarjima qiladi va 1842 yili «Sihohi tis'a»ning mavzuviy tahlilini amalga oshirdi. Asar nashri G.Flyugelning ishini davom etirgan G.Redslab tahriri ostida 1837, 1855, 1867 yillari chop etiladi. Germaniyada dunyoni o'zgartirishga qaratilgan harakatlar, tajovuzkor mustamlaka siyosati hamda «islom xaritasi»ni yutib olishga urinayotgan, amaliy va akademik yo'nalishdagi

sharqshunoslik faol rivojlantirildi. Bu yerda Qur'onni o'rganishga katta hissa qo'shgan shaxs Nyoldeke va uning atoqli shogirdlaridan tashkil topgan jamoa faoliyat olib borar edi.

XIX asrda amalga oshirilgan Qur'onning ko'p sonli tarjimalari va bosqichma-bosqich amalga oshirilgan tadqiqotlari Yevropa fani va falsafasi g'oyasining ajralmas bo'lagiga aylandi.

1927 yili G.Bergstreser va A.Jeferlar birgalikda Qur'onning tanqidiy matni rejasini ishlab chiqdilar. Negaki nashr G.Flyugel tomonidan amalga oshirilib, unda barcha murakkab matnga tegishli masalalar ochib berilgan edi. G.Bergstreser va A.Jeferlar birgalikda Qur'onni tanqidiy matni rejasini tuzadilar, u turli-tuman Qur'onga tegishli manbalar, musulmon mualliflarining nashr qilingan asarlari va topilmalaridan Qur'onning qiroatiga bag'ishlangan qismi tahlilini o'z ichiga oladi. Maqsad Misr nashrining asosi bo'lib xizmat qilgan Hafis qiroati asosidagi matni tadqiq etishni ko'zlangan bo'lsada, biroq ommaga saj' usulini o'ziga xosligini ochib bergan asar bo'lib tanildi. Undagi Qur'on oyatlarining raqamlanishi musulmon ana'nalariga va G.Flyugelning asariga muvofiq ravishda amalga oshirildi. Nyoldeke, F.Shvalli, G.Bergstreser, O.Pretslardan iborat olimlar tomonidan kirish qismi sifatida «Qur'on tarixi» nomli alohida asar yozildi. Asarning uchinchi jildi kengaytirilgan sharhning tanqidiy mulohazalarini o'z ichiga oldi. Loyiha mualliflari hisobdagi barcha mavjud variantlarni tushunib yetib bo'lmasligini tan olishdi. To'rtinchi jild Qur'onga oid so'zlardan tashkil topishi kerak edi. Mazkur jildning kattagina qismi tayyor holga kelishiga qaramay bir qator sabablar tufayli yakuniga yetmay qoldi.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. Sharqshunos olimlarining dinshunoslikni o'rganishdagi yondashuvlari.
2. G'arb dinshunosligida o'rganilayotgan ilmiy muammolar.

### **Adabiyotlar:**

1. Paul J. Doctrine and Organisation: The Khwajagan/Naqshbandiya in the First Generation after Baha'uddin // ANOR. No. 1. Halle-Berlin, 1998.
2. Pettazoni R, "History" and "phenomenology" of Religion /Waardenburg J. Classical Approaches to the Study of Religion. Mouton, The Hague, Paris, 1973, 639-642.
3. Основы религиоведения. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Под общ.ред. М.Н.Яблокова. М.,1995.
4. Ёвқочев Ш., Бобожонов Б., Раҳимжонов Д., Абдусатторов А., Солиев А. Ислом ва ҳозирги замон. Ўқув қўлланма. – Т.: Тошкент ислом университети, 2010. – 208 б.
5. Mirziyoyev Sh. Erkinvafarovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 32 b.
6. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон



Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.

7. “Ўзбекистон Республикасини знада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – Халқ сўзи, 8 февраль 2017-йил.

8. Мўминов А., Йўлдошхўжаев Х., Раҳимжонов Д., Комилов М., Абдусатторов А., Орипов А. Диншунослик. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан дарслик сифатида тавсия этилган. – Т.: Mehnat, 2004. – 295 б.

9. “Авесто” китоби тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи” мавзуидаги илмий-Семинар семинар материаллари. Т., 2000.

10. Башилов В.Н. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана. М., 1992.

11. Бергсон А. Два источника морали и религии. М., 1994.

12. Бартольд В.В. Научная поездка в Западную Европу // Там же, сс. 564-580.

**4-MAVZU: O‘zbekistonda hadisshunoslikni ((Imom Buxoriy xalqaro markazi, Samarqand), Iso Termiziy xalqaro markazi, Termiz)), fiqh ilmi (Marg‘inoniy fiqxshunoslik maktabi), tasavvuf ilmi (Naqshbandiy tasavvuf maktabi) diniy-ma’rifiy markazlarining tashkil topishi va ularda olib borilayotgan tadqiqotlar**

**Reja:**

1. O‘zbekistonda islomshunoslik fani
2. O‘zbekistonda Hadisshunoslikga oid tadqiqotlar
3. O‘zbekistonda Qur’onshunoslik fani

Yangi O‘zbekistonda islomshunoslik sohasida ham zalvorli islohotlar, tubdan yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish”ga o‘tish jarayonida diniy-ma’rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan yangilanishlar, o‘zgarishlar o‘zining ahamiyati bilan ajralib turadi. Buni ajdodlarimizning boy milliy-ma’naviy merosini, xususan, milliy qadriyatlarimiz darajasiga ko‘tarilgan qo‘lyozma merosimizni o‘rganish borasida yaqqol ko‘rish mumkin.

Dunyo mamlakatlari O‘zbekiston islom dini, ta’limoti, san’ati va madaniyatini dunyoga yoygan qadimiy yurt ekanligini odilona e’tirof etmoqda. Yurtimizdan jahon fani va madaniyatiga o‘zining serqirra ilmiy merosi bilan ulkan hissa qo‘shgan minglab allomalar yetishib chiqqan. Ularning nodir qo‘lyozma asarlari dunyoning turli mamlakatlari fondlariga tarqalgan va hozirda o‘sha fond-larning ko‘rki darajasidagi ma’naviy boyligiga aylangan hamda bu xalqaro hamjamiyat tomonidan to‘liq tan olingan.

Yurtimizda Qur’oni karim matnining o‘zbekcha izohli tarjimalarining yaratilishi islomshunoslik, xususan, qur’onshunoslik fanining sezilarli yutuqlaridan bo‘ldi. Shayx Usmonxon Alimov, Shayx Abdulaziz Mansur, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Shayx Alovuddin Mansur kabi ulamolar tomonidan amalga

oshirilgan tafsir va tarjimalar ajdodlarimiz hamda hozirgi kunda biz e'tiqod qilib kelayotgan islom dini ta'limoti asoslarini to'laqonli anglashga xizmat qiladi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar bugungi kunda jadal davom etmoqda. Jumladan, Shayx Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirilayotgan Qur'oni karimning yangi to'ldirilgan izohli tarjimasini yakunlab, 2018 yil ushbu izohli tarjimaning yangi nashri amalga oshirildi. Olim tomonidan amalga oshirilgan Qur'oni karimning rus tilidagi tarjimasini ham ilm ahli va kitobxonlarga taqdim etildi.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ham ta'lim, ham ilmiy dargoh sifatida islomshunoslik sohasi rivojida sezilarli o'rin egallab kelmoqda. Jumladan bu ilmiy dargohda olib borilgan ilmiy izlanishlarning kattagina qismini ham Qur'oni karim va uning tafsirlariga bag'ishlangan tadqiqotlar tashkil etadi. Ular jumlasiga "Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlarining qiyosiy tahlili (XIII-XV asrlar)", "Abu Bakr Jassos "Ahkom al-Qur'on" tafsirining hanafiy mazhabi rivojidagi ahamiyati", "Abu-l-Barakot an-Nasafiyning tafsir ilmida tutgan o'rni", "Abu-l-Lays as-Samarqandiyning Movarounnahr tafsirshunosligida tutgan o'rni", "Abu Hafs Nasafiy "Taysir fi-t-tafsir" asarining manbashunoslik tadqiqi" mavzularidagi tadqiqotlarni kiritish mumkin.

Hadis manbalarini ilmiy tahlil qilish ham islomshunoslikning muhim yo'nalishlaridan bo'lib, soha bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Mana shu maqsadda Samarqandda hadis ilmiy maktabining ochilishi soha rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, hadisshunoslik manbalari, hadis to'plamlaridagi matnlarni tahlil qilish, hadis ma'nolarini to'g'ri talqin qilish hozirgi kunda dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur sohada «Abdulloh Subazmuniyning «Kashfu-l-osor» asari hadis ilmiga oid manba», «Abu Hafs Nasafiyning «Kitobu-l-qand fi ma'rifat ulamo Samarqand» asari – Samarqandda hadis ilmi tarixi bo'yicha muhim manba», «Hakim Termiziyning «Navodiru-l-usul» asari hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba», «Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (Buxoriy, Muslim, Termiziy)», «Imom Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi», "Abdulhamid Keshiy ilmiy merosining VIII-IX asrlar Movarounnahr hadis ilmi rivojidagi o'rni", "Imom Buxoriyning "at-Tarix al-kabir" asari hadis ilmiga oid muhim manba", "Hadislarning diniy aqidaparastlikka qarshi mohiyati" mavzularidagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, Akademiyada amalga oshirilayotgan Imom Buxoriy "Al-Jome' as-sahih" asaridagi axloq-odobga bag'ishlangan hadislarning talqiniga bag'ishlangan grant loyihasi ham bu boradagi muhim ilmiy tadqiqotlardan sanaladi.

Islom huquqshunosligiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham kattagina hajmni tashkil etadi. «Movarounnahr fiqh ilmi rivojida Alouddin Samarqandiyning o'rni va «Tuhfat al-fuqaho» asarining ahamiyati», «IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom Buxoriyning mavqei va uning «Jomiu-s-sahih» asaridagi fiqhiy masalalar», «Majduddin Ustrushaniyning Movarounnahr fiqh ilmi tarixida tutgan o'rni», «Abu Zayd Dabusiy merosining Movarounnahrda fiqh ilmi rivojida tutgan o'rni», «Burhonuddin Mahmud Buxoriyning «Muhit» asari va uning Movarounnahr qoziligida tutgan o'rni», «Islom huquqshunosligi va hanafiy mazhabi taraqqiyotida O'rta Osiyo faqihlarining o'rni», «Lutfulloh Nasafiyning «Fiqhi Kaydoniy» asari va unga yozilgan sharh va hoshiyalar tahlili», «Burhoniddin Marg'ioniyning

«Hidoya» asari – muhim huquqiy manba», «X–XIII asrlar Movarounnahr ijtimoiy munosabatlariga oid protsessual va notarial hujjatlar», «Abu Hafs Kabir Buxoriy va hanafiy fihi». «Alovuddin Buxoriy «Hayratu-l-fuqaho» asarining islom manbashunosligida tutgan o‘rni», “Musulmon mamlakatlaridagi fatvo markazlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzularidagi dissertatsiyalar va ular asosida yaratilgan monografiyalar sohaga oid muhim tadqiqotlardan sanaladi.

Islomshunoslikning muhim sohalaridan bo‘lgan tasavvuf ta‘limotini tadqiq etishga ham alohida e‘tibor berilmoqda. Jumladan, “Tasavvuf ta‘limotining tarixiy-falsafiy mohiyati”, “Rushdiy “Tazkiratul-avliyo” asari matnlarining sharq agiografik manbalarini o‘rganishdagi ahamiyati”, “Tasavvuf ta‘limotida valiylik tushunchasining diniy-falsafiy talqini (Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asari asosida)”, “Mavlono Abdurahmon Jomiyning tasavvufiy-irfoniy qarashlari («Sharhi ruboiyot» asari asosida)” mavzularidagi tadqiqotlar sohaning rivojini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlardan sanaladi.

O‘zbekiston islom dunyosida mo‘‘tadil aqidaviy maktab sifatida tanilgan va e‘tirof etilgan Abu Mansur Moturidiy asos solgan moturidiylik kalom maktabining vatani sanaladi. Moturidiylik ta‘limotining ilmiy-nazariy asoslarni ishlab chiqishga xizmat qilgan mutakallim olimlar ilmiy merosini o‘rganishga qaratilgan muhim ishlardan biri Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining ochilishi bo‘ldi. Mazkur markaz Moturidiy va moturidiyshunos olimlar ilmiy merosini o‘rganish, tarjima va tadqiq etish orqali turli g‘arazli oqimlar iddaolariga ilmiy asoslangan raddiyalar berish bilan shug‘ullanadi. Buyuk mutafakkir, moturidiylik ta‘limotining asoschisi imom Abu Mansur Moturidiy o‘zi yashagan davrdayoq zamondosh olimlar tomonidan e‘tirof etilgan va “Imomu-l-mutakallimin” – “Kalom ilmi bilimdonlarining peshqadami”, “Musahhihu aqoidi-l-muslimin” – “Musulmonlar aqidasi to‘g‘rilovchi”, “Rofe’ a‘lomu-sh-shari’a” – “Shariat bayroqdori” kabi sharaflil nomlarga sazovor bo‘lgan.

Dunyoda paydo bo‘layotgan g‘oyaviy kurashlar, din niqobidagi ekstremistik va terroristik harakatlarning oldini olish, ularga qarshi kurashish jarayonida mo‘‘tadil aqidaviy ta‘limot asoschisi Abu Mansur Moturidiy va moturidiyshunos olimlar ilmiy merosini chuqur o‘rganish, ularning aqida va kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasini tadqiq etish va keng targ‘ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu umuminsoniy g‘oyalar ruhida tarbiyalash, ularda ma‘naviy va ma‘rifiy qarashlarimizga yot bo‘lgan zararli ta’sirlarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda aqida ilmiga oid tadqiqotlarning soni va ilmiy saviyasi ko‘tarildi, manbaviy asoslari kuchaydi. Kalom ilmi masalalariga bag‘ishlangan “Sa‘duddin Taftazoniyning temuriylar davri Moturidiya ta‘limoti rivojiga qo‘shgan hissasi”, “Abu-l-Muin Nasafiy ilmiy merosining Movarounnahr kalom ta‘limoti rivojidagi ahamiyati”, Abu Hafs Umar Nasafiyning “Aqoid” asari va uning sharhlari tahlili”, “Abu-l-Muin an-Nasafiy va uning moturidiya ta‘limoti rivojiga qo‘shgan hissasi («Tabsiratu-l-adilla» asari asosida)” kabi tadqiqotlar ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Dunyo e‘tirof etgan islom sivilizatsiyasi markazi maqomiga ega yurtimizning minglab allomalari, ular yaratgan boy ilmiy ma‘naviy meros haqida ma‘lumot berish, uni dunyoga tanitish yurtimizning islom sivilizatsiyasi rivojidagi yuksak

oʻrni va ahamiyatini ilmiy asosda chuqur oʻrganish hamda xalqimizga yetkazishda ensiklopediyalarning oʻrni katta. Ushbu soha boʻyicha amalga oshiriladigan ishlar «Islom ensiklopediyasi»ning yaratilishi Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. 2018-2028 yillar mobaynida ensiklopediyaning 50 mingdan ortiq maqola, bezak materiallari, xarita va chizmalar kiritilgan 20 jildligini nashrga tayyorlash va chop etish rejalashtirilgan. «Islom ensiklopediyasi» keng qamrovli ilmiy-akademik nashr boʻlib, bunday loyiha mamlakatimiz tarixida ilk marotaba amalga oshirilmoqda. 2020 yili ensiklopediyaning birinchi jildi nashr etildi, hozirda uning ikkinchi jildi nashr arafasida. Uni nashrga tayyorlash jarayoniga yurtimizning koʻzga koʻringan olimlari, diniy ulamolari jalb etilgan. «Islom ensiklopediyasi» oʻzining mazmun-mohiyati, mundarijasi, xususiyatlari bilan boshqa shu sohadagi ensiklopediyalardan tubdan farq qiladi.

Oʻzbekistonda islomshunoslikning ilmiy, nazariy asoslarini mustahkamlash boʻyicha amalga oshirilgan muhim ishlarning maʼlum qismi dissertatsiyalar, monografiyalar va ilmiy maqolalarda oʻz aksini topgan. Jumladan, birinchi marta oliy malakali ilmiy kadrlar roʻyxatiga yangi «Islomshunoslik» mutaxassisligi kiritildi. Ushbu mutaxassislik tarkibiga «Islom tarixi va manbashunosligi», «Qurʼonshunoslik, hadisshunoslik», «Fiqh, kalom ilmi. Ilohiyot», «Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunosligi» ixtisosliklari kiritilgan va yuqoridagi ixtisosliklar boʻyicha fan doktori ilmiy darajasini olish boʻyicha dissertatsiyalar himoyasiga ixtisoslashgan Ilmiy kengash ochilib, oʻz faoliyatini olib bormoqda. Ilmiy kengashda islomshunoslikning dolzarb muammolariga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlar natijasida shakllangan 100 ga yaqin dissertatsiyalar himoya qilingan.

Akademiyaga Yevropa, Afrika, Amerika, Avstraliya va Osiyo mamlakatlarining 20 dan ortiq davlatlaridan tashrif va murojaatlar amalga oshirilgandi. Ayniqsa, Misr Arab Respublikasi Bosh imomi, Al-Azhar majmuasi rahbari, islomshunos olim Ahmad at-Toyib boshchiligidagi delegatsiya, Islom taraqqiyot banki Prezidenti Bandar Hajjar boshchiligidagi delegatsiyaning tashriflari xalqaro aloqalarni rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi.

Oʻzbekistonda dunyoviy va diniy bilimlar uygʻunligida mutaxassis tayyorlovchi oliy taʼlim muassasasi Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasida Qurʼon ilmlari, hadisi sharif, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, islom tarixi, manbashunosligi va falsafasi kabi diniy taʼlim yoʻnalishlari, dinshunoslik, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar, ziyorat turizmi hamda mumtoz sharq adabiyoti singari dunyoviy taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari boʻyicha bakalavr va magistrlik, shuningdek, ushbu sohada chuqur tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ustida ishlamoqda. Respublikadagi barcha islom taʼlim muassasalari faoliyatini oʻquv-meʼyoriy va oʻquv-uslubiy jihatdan taʼminlash hamda muvofiqlashtirish, islom dinining asl mohiyatini va insoniyatni ezgulikka eltuvchi din ekanligini ilmiy asoslangan holda teran oʻrganish hamda targʻib etish, ilmiy tadqiqotlar natijalari boʻyicha diniy-maʼrifiy, maʼnaviy-axloqiy yoʻnalishlardagi ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarni tayyorlash va nashr qilish bilan shugʻullanmoqda. Shuningdek, Internet jahon axborot tarmogʻida taʼlim resurslarini yaratish va muntazam yangilab borish, malakali xorijiy mutaxassislarni taʼlim jarayoniga jalb qilish, Akademiya mutaxassislarni nufuzli xorijiy oliy diniy

ta'lim va ilmiy muassasalarga malaka oshirish hamda tajriba orttirish uchun yuborish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida dolzarb mintaqaviy va global muammolar yechimi yuzasidan fikrlar bildirar ekan, jumladan, butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazish, uni zo'ravonlik va qon to'kish bilan tenglashtirmaslik zarurligi, Markaziy Osiyoning islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ko'plab yorqin namoyandalari, jumladan Imom Buxoriy boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida tarbiyalash, yoshlarni zo'ravonlik g'oyasi "virusi"dan himoya qilishni eng muhim vazifalar sifatida ta'kidlagan edi.

Yurtimizda barcha sohalar qatori diniy-ma'rifiy yo'nalishda ham ulkan islohotlar, xususan, muqaddas islom dinini o'rganish, ajdodlar merosini qayta tiklash va ularni kelajak avlodlarga asl holicha yetkazish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbuslari bilan buyuk ajdodlarga munosib vorislarni tayyorlash maqsadida yurtimizda diniy ta'lim tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan buyuk muhaddislar Imom Dorimiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abdulloh ibn Muborak, Ibn Hibbon, Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad Barokotiy, Ibrohim ibn Ma'qil Nasafiy va Abd ibn Humayd Keshiylar tomonidan hadis maktablariga asos solingan bo'lib, ushbu ilmu ma'rifat va ziyo maskanlari hadis ilmi rivoji hamda dunyo ilm-fan taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan.

"Hadis ilmining sultoni" nomini olgan buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" kitobi musulmon dunyosida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, islom dini e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi.

Buyuk allomalarimiz asos solgan hadis ilmi an'alarini qayta tiklash va rivojlantirish, ular qoldirgan boy ilmiy merosni o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida Hadis ilmi maktabi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan Hadis ilmi maktabining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- islom dinining asl mohiyatini, ilmiy-ma'naviy asoslarini, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar merosini o'rganish, ijtimoiy, axloqiy masalalar hamda yoshlar tarbiyasiga doir manbalarni keng yoritish va targ'ib qilish orqali "Jaholatga qarshi – ma'rifat" shiori asosida faoliyat olib borish;
- hadis ilmi asoslarini chuqur egallagan, unga oid tadqiqotlar bilan yaqindan tanishgan va sohadagi zamonaviy muammolarni hal qila oladigan, shuningdek, bu borada ilmiy izlanishlar olib bora oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash;
- Qur'oni karim va hadislarining asl mohiyati, hadis maktabining ilmiy-ma'naviy asoslari, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy va yurtimizdan yetishib chiqqan boshqa muhaddis allomalar merosini har tomonlama o'rganish va ular asosida ilmiy-tadqiqot va tarjima ishlarini olib borish;

Bu ilm dargohining o‘ziga xos jihati shuki, unda “Sihohi sitta” ya’ni butun dunyo olimlari tomonidan “Olti ishonchli to‘plam” deb e’tirof etilgan hadis kitoblari to‘liq o‘qitiladi.

Hadis ilmi maktabida Qur’on karim, fiqh, aqoid, tafsir, islom tarixi, arab tili va boshqa fanlar bo‘yicha chuqur bilimlar berilishi bilan bir qatorda, hadis va unga oid ilmlar o‘rgatiladi.

Jumladan, “Hadis”, “Mustalahul hadis” (Hadis istilohlari), “Hadis va sharh, “Ahkomul-hadis” (Hukm olinadigan hadislar sharhi), “Jarh va ta’dil” (Roviylarni holatlari to‘g‘risidagi fan), “Taxrij va dirosatul asonid” (Hadis isnodlarini chiqarish va o‘rganish), “Ilalul hadis” (Hadis illatlari va uni zaif qiluvchi sabablar) kabi mutaxassislik fanlari o‘qitiladi.

Albatta mutaxassislik fanlari qadimgi Samarqand, Buxoro diniy ta’lim tizimi an’analariga muvofiq tarzda, yurtimizda ming yillar davomida o‘qitilib kelingan mo‘tabar darslik va o‘quv kitoblari asosida o‘rgatiladi.

Shuningdek, Hadis ilmi maktabi bitiruvchilari respublikadagi diniy ta’lim muassasalarida hadis va unga oid fanlardan dars berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yurtimizda barcha sohalar qatori diniy-ma’rifiy sohaga ham alohida e’tibor qaratilib, keng imkoniyatlar, ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning amaliy ifodasi sifatida Samarqand viloyatida tashkil etilgan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Toshkentda Islom sivilizasiyasi markazi, Surxondaryoda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Qashqadaryoda Abu Muin Nasafiy majmuasi, Buxoroda Mir Arab Oliy madrasasini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ishtirokida 2017 yil 15 iyunda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi videosektor yig‘ilishida bergan tavsiya va ko‘rsatmalari asosida Samarqandda Hadis va Kalom ilmi maktabi, Buxoroda Tasavvuf maktabi, Qashqadaryoda Aqida maktabi, Farg‘onada Islom huquqi (Islom fiqhi) ilmiy maktablari tashkil etildi.

Mazkur maktablar ilmiy-tadqiqot markazi shaklida tashkil etilib, asrlar davomida yurtimizda shakllangan Ustoz-shogird an’analariga asoslangan Buxoro va Samarqand maktablari uslubida faoliyat olib boradi.

Yurtimizdan etishib chiqqan buyuk allomalarning hadis, kalom, tasavvuf, aqida va fiqh ilmlari bo‘yicha boy ilmiy merosini har tomonlama o‘rganish, ular asosida ilmiy-tadqiqot va tarjima ishlarini olib borish, aholi, ayniqsa, yoshlarni buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan har tomonlama himoya qilish, ularni vatanga muhabbat, milliy va diniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, muqaddas dinimizning ma’rifatga, tinchlik va osoyishtalikka chaqiruvchi barhayot ta’limotini tushuntirish, turli buzg‘unchi oqimlarning yot g‘oyalarga qarshi asosli raddiyalar tayyorlash maktablarning asosiy maqsad va vazifalari hisoblanadi.

### **O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar:**

1. O‘zbekistonda Islomshunoslik fani rivoji?
2. O‘zbekistonda Hadis ilmiga oid tadqiqot ishlari?
3. O‘zbekistonda diniy sohadagi islohotlar?

4. O‘zbekistonda faoliyati yo‘lga qo‘yilgan diniy ta’lim maskanlari, ilmiy tadqiqot markazlari?

**Adabiyotlar:**

1. Основы религиоведения. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Под общ.ред. М.Н.Яблокова. М.,1995.
2. Ёвкочев Ш., Бобожонов Б., Раҳимжонов Д., Абдусатторов А., Солиев А. Ислом ва ҳозирги замон. Ўқув қўлланма. – Т.: Тошкент ислом университети, 2010. – 208 б.
3. Mirziyoyev Sh. Erkinvafarovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.
4. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.
5. Ўзбекистон Республикасини знада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – Халқ сўзи, 8 февраль 2017-йил.
6. Мўминов А., Йўлдошхўжаев Ҳ., Раҳимжонов Д., Комилов М., Абдусатторов А., Орипов А. Диншунослик. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан дарслик сифатида тавсия этилган. – Т.: Mehnat, 2004. – 295 б.

## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### **1-amaliy mashg'ulot:**

#### **“Diniy manbalarni bag‘rikenglik nuqtai nazaridan o‘rganish” mavzusidagi amaliy dars**

O‘qituvchi bag‘rikenglik nima ekanligini va diniy manbalarni o‘rganishda nima uchun muhimligini tushunish, diniy matnlarni o‘qishda noto‘g‘ri qarash va noto‘g‘ri qarashlarni qanday aniqlash va undan qochish, shuningdek, bag‘rikenglikni qadrlash va hurmat qilish kabi mavzu va darsning maqsadi bilan tanishtiradi. diniy manbalarni va an‘analarning xilma-xilligi va boyligi.

#### **O'qituvchi bag'rikenglik -**

bu boshqalarning, ayniqsa o'zidan turli xil e'tiqod, qadriyatlar va amaliyotga ega bo'lganlarning farqlari va xilma-

xilligini qabul qilish va hurmat qilish qobiliyati va tayyorligi ekanligini tushuntiradi.

Shuningdek, o‘qituvchi diniy manbalarni o‘rganishda bag‘rikenglik muhim ahamiyatga ega ekanligini, chunki diniy manbalar diniy e‘tiqodlar, qadriyatlar va o‘ziga xosliklarning asosini tashkil etuvchi matnlar, artefaktlar, marosimlar, amaliyot va tajribalar bo‘lib, ular ko‘pincha rang-

barang, murakkab va bahsli. O'qituvchi quyidagi fikrlardan qo'llanma sifatida foydalanishi mumkin:

**\*\*Bag‘rikenglik befarqlik yoki relyativizm emas\*\*:** Tolerantlik insonning o‘z e‘tiqodlari, qadriyatlari va amaliyotlariga ahamiyat bermasligi yoki ularga ega bo‘lmashligi yoki barcha e‘tiqodlar, qadriyatlar va amaliyotlar bir xilda to‘g‘ri deb o‘ylashini anglatmaydi. yoki yaxshi. Bag'rikenglik insonning turli e'tiqodlar, qadriyatlar va amaliyotlarning mavjudligi va haqiqiylikini tan olishi va hurmat qilishini anglatadi, ular bilan rozi bo'lmasdan yoki qabul qilmasdan.

**\*\*Tolerantlik ma'qullash yoki tasdiqlash emas\*\*:** Tolerantlik boshqalar ish onadigan, qadrlaydigan yoki amal qiladigan hamma narsani qo'llab-quvvatlashi yoki ma'qullashini yoki ularni tanqid qilish yoki e'tiroz bildirishga haqqi yo'qligini anglatmaydi. Tolerantlik insonning o‘z e‘tiqodi, qadriyatlari va amaliyotini boshqalarga singdirishdan yoki majburlashdan o‘zini tiyishi, ular bilan konstruktiv muloqot va bahs-munozaralarga kirishishini bildiradi.

**\*\*Bag‘rikenglik bu jaholat yoki qochish emas\*\*:** Tolerantlik insonning boshqalarning e‘tiqodlari, qadriyatlari va amaliyotlari haqida bilmasligi yoki bilishni ist



amasligi yoki ulardan qochishi yoki o'zini ajratib qo'yishini anglatmaydi. Tolerantlik insonning boshqalarning e'tiqodlari, qadriyatlarini va amaliyotlarini o'rganishi va tushunishi, ular bilan muloqot qilish va hamkorlik qilishini anglatadi.

O'qituvchi sinfni kichik guruhlariga bo'lib, har bir guruhga turli diniy manbalar, ya'ni kitob, sharh, ma'ruza, fatvo, sutta va hokazolarni ajratadi. Shuningdek, o'qituvchi har bir guruhga savol va topshiriqlar beradi. diniy manbani o'qish va tahlil qilishda rahbarlik qilish, masalan:

- *Diniy manbaning asosiy xabari yoki mavzusi nima?*

- *Diniy manbaning tarixiy va madaniy sharoitlari va ta'siri qanday?*

- *Diniy manba muallifi yoki sharhlovchisi qanday taxmin va qarashlarga ega?*

-

*Diniy manbaning boshqa diniy manbalar yoki an'analar bilan qanday aloqasi bor?*

-

*Diniy manba zamonaviy jamiyat ehtiyojlari va muammolariga qanday javob beradi yoki ularga javob beradi?*

-

*Diniy manbani o'qiyotganda qanday tarafdashlik yoki noto'g'ri qarashlar paydo bo'lishi yoki duch kelishi mumkin?*

-

*Qanday qilib bu tarafdashlik yoki noto'g'ri qarashlarni engish yoki undan qochish, diniy manbani ochiq va tanqidiy fikr bilan o'qish mumkin?*

- *Diniy manbadan qanday tushuncha yoki saboq olish mumkin?*

O'qituvchi sinfda muhokama o'tkazishga yordam beradi, bunda har bir guruh o'z xulosalari va kuzatishlarini taqdim etadi, qolgan guruhlar esa savollar berib, fikr-mulohazalarini bildiradilar. Shuningdek, o'qituvchi guruhlarini diniy manbalarni turli nuqtai nazar va an'analar bilan taqqoslab, solishtirishga, diniy manbalarni bag'rikenglik nuqtai nazaridan o'rganishning o'xshash va farqli tomonlari, qiyinchiliklari va foydalari haqida fikr yuritishga undaydi.

*Bag'rikenglik va xilma-*

*xillikni hurmat qilishni targ'ib qiluvchi diniy manbalarga misollar:*

*Qur'on*, Islomning muqaddas kitobi bo'lib, unda turli din va kelib chiqishi bo'lgan odamlar o'rtasida tinch-totuv yashash, o'zaro hurmat va muloqotga chaqiruvchi ko'plab oyatlar mavjud. Masalan, Qur'on 49: 13 da shunday deyilgan: "ey insonlar, biz sizlarni erkak va ayoldan yaratdik va sizlarni bir-biringizni bilishingiz uchun xalqlar va qabilalar qildik. Darhaqiqat, Allohning nazdida sizlarning eng olijanobingiz eng solihlaringizdir. Darhaqiqat, Alloh biladi va ta niydi."

- *Dhammapada*, buddizmning asoschisi buddizmning rahm-shafqat, Mehribonlik va zo'ravonlik kabi tamoyillari va axloqini ifoda etuvchi buddaviylikka tegishli oyatlar to'plami. Masalan, *Dhammapada* 5 shunday deydi: "bu dunyoda nafrat hech qachon nafrat bilan tinchlanmaydi. Faqat nafratlanmaslik bilan nafrat tinchlanadi. Bu abadiy qonun."

Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan 1990 yilda qabul qilingan Islom huquqlari va a qadr-qimmatiga oid Islom nuqtai nazarini aks ettiruvchi hujjat- Islomda inson huquqlari Deklaratsiyasi. Hujjat irqi, rangi, tili, jinsi, dini, siyosiy mansubligi, ijtimoiy mavqei yoki boshqa farqlaridan qat'i nazar, barcha insonlarning tengligi va qadr-qimmatini tasdiqlaydi. Hujjatda, shuningdek, fikr, vijdon va din erkinligi, shuningdek, Millatlar va xalqlar o'rtasida tinch-totuv yashash va hamkorlik qilish huquqi tan olingan.

## **2-amaliy mashg'ulot: "Jahon dinlari manbalarini o'rganishda diniy izohlarning o'rni" mavzusidagi interaktiv va amaliy dars**

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadlari bilan tanishtiradi, masalan, diniy sharhlar nima ekanligini, ularning diniy manbalarga qanday aloqasi borligini, turli jahon dinlarida ularning o'rni va maqsadlari qanday ekanligini tushunish.

O'qituvchi guruhni *kichik guruhlarga ajratadi* va har bir guruhga iudaizm, nasroniylik, islom, hinduizm yoki buddizm kabi dunyo dinini belgilaydi. Shuningdek, o'qituvchi har bir guruhga diniy manbalar to'plamini va o'zlariga tayinlangan dindandiniy sharhlar, masalan, kitoblar, sharhlar, ma'ruzalar, fatvolar, suttalar va boshqalarni taqdim etadi.

O‘qituvchi har bir guruhga o‘z diniga tegishli diniy manbalar va diniy sharhlarni o‘rganish va solishtirish hamda quyidagi jihatlarni aniqlash va tahlil qilishni buyuradi:

*Diniy sharhlar diniy manbalarni qanday izohlaydi, tushuntiradi, baholaydi va qo‘llaydi?*

*- Diniy sharhlar bag‘rikenglik, obro‘- e‘tibor, haqiqiylik, tanqid va baholash jihatlari bilan qanday bog‘liq?*

*- Diniy sharhlarning o‘zlariga berilgan dindagi o‘rni va maqsadlari qanday?*

O‘qituvchi guruhda muhokama o‘tkazishga yordam beradi, bunda har bir guruh o‘z xulosalari va kuzatishlarini taqdim etadi, qolgan guruhlar esa savollar berib, fikr-mulohazalarini bildiradilar. Shuningdek, o‘qituvchi guruhlarni turli dunyo dinlaridagi diniy mulohazalarni solishtirish va solishtirish, diniy manbalarni bag‘rikenglik nuqtai nazaridan o‘rganishning o‘xshash va farqli tomonlari, qiyinchiliklari va foydalari haqida fikr yuritishga undaydi.

#### QUYIDAGI TOPSHIRIQLARNI MUHOKAMA QILING

##### 1. **Ommaviy manbalar va ilmiy adabiyotlar:**

- Islomiy adabiyotlar, hadislar, Qur'on tafsirlari.
- Xristianlik adabiyotlar, Biblia tefsirlari.
- Yahudiy adabiyotlar, Tanakh va Talmud.

##### 2. **Internet manbalari:**

- Xalqaro diniy saytlar va forumlar.
- Diniy ilmiy jurnallar va maqolalar.

##### 3. **Diniy savollar bo'yicha kitoblar:**

- Jahon dindorlarining asosiy kitoblari.
- Ta'limiy kitoblar va darsliklar.

##### 4. **Akademik kutubxonalardan ilmiy maqolalar:**

- diniy olimlar va ilmiy tadqiqotchilar tomonidan yozilgan maqolalar.

5. **Diniy liderlarning nutqlari:**

- Papa, muftiy, ravshanlar, vaj, rabbi, guru yoki boshqa diniy liderlar tomonidan o'qilgan nutqlar va bayonotlar.

6. **Ilmiy konferensiyalarning materiallari:**

- Diniy muzokaralar, ilmiy konferensiyalar va simpoziumlarning materiallari.

7. **Musey va ma'ruzalar:**

- Diniy san'at asarlari va ma'ruzalar.
- Madrasalar, diniy ta'lim muassasalari va diniy joylar.

8. **Diniy audio va video materiallar:**

- Diniy darslar, bayonotlar, savollar va javoblar.
- Diniy filmlar va dokumentika.

**3-amaliy mashg'ulot:“ : Qur'onshunoslik va hadisshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlar” mavzusidagi amaliy dars**

- O'qituvchi hadis, tasavvuf, diniy-ma'rifat nima ekanligini, ularning islom dinini o'rganish va amalda qo'llashda nima uchun muhimligini, bu sohalar bo'yicha markazlarni qanday yaratish va rivojlantirishni tushunish kabi mavzu va darsning maqsadi bilan tanishtiradi. O'zbekistonda.

– Ustoz *hadislar* islom dinining asoschisi Muhammad payg'ambar va u zotning sahobalarining so'zlari va xatti-harakatlari haqidagi xabarlar bo'lib, islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'ondan keyin islom shariati va hidoyatining ikkinchi manbai hisoblanganini tushuntiradi. Domla, shuningdek, tasavvuf islom ma'naviyatining meditatsiya, ibodat, zohidlik kabi turli usul va amallar orqali Xudoning bevosita va shaxsiy tajribasiga erishishga intiladigan tarmog'i ekanligini tushuntiradi. O'qituvchi, shuningdek, diniy-ma'rifiy islom dini, shuningdek, boshqa dinlar va dunyoqarashlarning e'tiqodlari, qadriyatlarini va urf-odatlarini o'rgatish va o'rganish jarayoni ekanligini, turli e'tiqod va e'tiqodli odamlar o'rtasida bilim, tushunish va bag'rikenglikni shakllantirish maqsadida tushuntiradi. fonlar.

- O'qituvchi sinfni kichik guruhlariga bo'lib, har bir guruhga hadis ilmi, tasavvuf yoki diniy-ma'rifat kabi turli yo'nalishlarni ajratadi. O'qituvchi, shuningdek, har bir guruhga Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Islom madaniyati markazi, O'zbekiston akademiyasi va veb-qidiruv kabi O'zbekistonda mavjud yoki potentsial markazlar haqida ma'lumot va manbalar to'plamini taqdim etadi. `search\_web` vositasidan olingan natijalar. O'qituvchi har bir guruhga resurslar va ma'lumotlarni o'rganish va baholashni, shuningdek, quyidagi jihatlarni hisobga olgan holda O'zbekistonda o'zlariga ajratilgan soha bo'yicha markazni yaratish yoki rivojlantirish bo'yicha taklif tayyorlashni buyuradi:

- *Markazning istiqboli va vazifasi qanday?*
- *Markazning maqsad va vazifalari qanday?*
- *Markaz faoliyati va dasturlari qanday?*
- *Markazning resurslari va imkoniyatlari qanday?*
- *Markaz oldida turgan vazifalar va imkoniyatlar qanday?*
- *Markazning jamiyatga, mamlakatga qanday foydasi bor?*

- O'qituvchi sinf taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, unda har bir guruh o'z taklifini bildiradi, qolgan guruhlar esa savollar berib, fikr-mulohazalarini bildiradilar. Shuningdek, o'qituvchi guruhlarini turli sohalardagi takliflarni solishtirish va solishtirish, O'zbekistonda hadisshunoslik, tasavvuf va diniy ta'lim markazlarini yaratish yoki rivojlantirish maqsadga muvofiqligi va maqsadga muvofiqligi haqida fikr yuritishga undaydi.

#### **4-amaliy mashg'ulot: Mavzu: "O'zbekistonda diniy ma'rifatni rivojlantirish: hadisshunoslik, tasavvuf va diniy-ma'rifiy markazlar" mavzusidagi amaliy dars**

Maqsad:

Ishtirokchilarni O'zbekistonda hadisshunoslik, tasavvuf va diniy-ma'rifiy markazlar tashkil etish g'oyasi bilan tanishtirish, shuningdek, ularning ta'lim va madaniyatdagi rolini muhokama qilish.

*1-qadam: kirish (10 daqiqa)*

O'zbekistonda diniy ta'lim tarixiga qisqacha kirish va hadisshunoslik, tasavvuf va diniy-ma'rifiy markazlarni rivojlantirish zarurati.

## **2-qadam: Panel muhokamasi (20 daqiqa)**

Hadisshunoslik, tasavvuf va diniy-ma'rifiy markazlarni tashkil etishning ahamiyati va zarurligi to'g'risida panel muhokamasida ishtirok etish uchun ekspertlar va jamoatchilik vakillarini taklif qilish.

### *3-qadam: muvaffaqiyatli loyihalarga misollar (15 daqiqa)*

Boshqa mamlakatlardagi shunga o'xshash markazlarning muvaffaqiyatli loyihalari taqdimoti.

Ushbu loyihalarning qaysi jihatlari O'zbekistonda muvaffaqiyatli moslashtirilishi mumkinligini muhokama qilish.

### *4-qadam: guruhlarda ishlash (20 daqiqa)*

Ishtirokchilar guruhlariga bo'linib, hadisshunoslik, tasavvuf yoki diniy-ma'rifiy markaz kontseptsiyasini ishlab chiqadilar.

Maqsad: maqsadlar, usullar, auditoriya va harakatlar rejasini aniqlang.

### *5-qadam: loyiha taqdimoti (10 daqiqa)*

Har bir guruh o'z ishlab chiqilgan kontseptsiyasini taqdim etadi.

Muhokama: taklif etilayotgan loyihalarni amalga oshirishning afzalliklari va mumkin bo'lgan qiyinchiliklari.

### *6-qadam: ochiq munozara va savollar (5 daqiqa)*

Ishtirokchilar savollar berishlari va o'z fikrlari bilan o'rtoqlashishlari mumkin bo'lgan ochiq munozara.

### *7-qadam: xulosa va mulohaza (5 daqiqa)*

O'zbekistonda hadisshunoslik, tasavvuf va diniy-ma'rifiy markazlar tashkil etilishining ahamiyati to'g'risida qisqacha xulosa.

Ko'zgu: kelajakda shunga o'xshash tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun qanday choralar ko'rish mumkin?

### *8-qadam: tugatish (5 daqiqa)*

Ishtirokchilarga faol ishtirok etgani va fikr almashgani uchun minnatdorchilik bildiring.

Ushbu amaliy mashg'ulot O'zbekistonda hadisshunoslik, tasavvuf va diniy-ma'rifiy markazlarni tashkil etish, ularning ta'lim va madaniyat sohasidagi rolini ta'kidlab, g'oyalarni rivojlantirishga va ularning yo'llarini muhokama qilishga yordam beradi.

## V. KEYSLAR BANKI

1. Sharq va G'arb olimlarning din falsafasi haqidagi qarashlari haqida nimalar bilasiz?

2. Din kelib chiqishining obektiv va sub'ektiv omillari, falsafiy tahlili deganda nimalarni tushunasiz

3. Dinning strukturaviy elementlari: diniy e'tiqod, diniy ong, diniy foliyat, diniy munosabatlar, diniy tashkilotlar mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi haqida gapirib bering.

4. Islom aqidalari va tamoyillari, arkon at-din ruknlarining diniy-falsafiy mazmuni haqida gapirib bering

5. Hadisshunoslik ilmi, uning diniy-ahloqiy va falsafiy qarashlari haqida gapirib bering.

## VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

### Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulning xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib, tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar vositasida ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- amaliy mashg'ulotlarda berilgan topshiriqlarni bajarish.

### Mustaqil ta'lim mavzulari

1. "Din falsafasi" faniga kirish
2. "Din falsafasi" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, amaliy ahamiyati
3. Sharq va G'arb olimlarning din falsafasi haqidagi qarashlari
4. Din falsafasining mustaqil fan sifatida shakllanishi
5. Din kelib chiqishining obektiv va sub'ektiv omillari, falsafiy tahlili.
6. Dinni tadqiq etishda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillarining uyg'unligiga asoslanish.
7. Dinning strukturaviy elementlari: diniy e'tiqod, diniy ong, diniy foliyat, diniy munosabatlar, diniy tashkilotlar mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi.
8. Din haqidagi falsafiy va sosiologik konsepsiyalar va din ta'rifi.
9. Din funksiyalari, ularning falsafiy tahlili.
10. Diniy dunyoqarash, uning bilish, akseologik, prokseologik jihatlari.
11. Dastlabki mifologik qarashlarda "Xudo" tushunchasi



## VII. GLOSSARIY

<b>Termin</b>	<b>O‘zbek tilidagi sharhi</b>
<b>Abxidxarma-Pitaka</b>	– buddaviylikning muqaddas kitobi Tripitakaning falsafa va psixologiyaga oid qismi.
<b>Avesto</b>	(qad. eron-pahlaviy. «o‘rnatilgan, qat’iy qilib belgilangan qonun-qoidalar») zardushtiylikning muqaddas kitobi.
<b>Aqida</b>	arab tilida biron narsani bir-biriga bog‘lash ma’nosini anglatadi. Istilohda esa aqoid ilmining mashhur nomlaridan biri.
<b>Aqliy dalil</b>	mutakallimlarning o‘z ra’ylari. Fikriy qarashlari asosida biron aqidaviy masalaga bergan javoblari. Aqliy dalil asosan mantiq bilan bog‘liq hisoblangan
<b>Animizm</b>	lotin tilida “anima”- ruh, jon ma’nosini anglatadi. Animizm ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o‘simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong tabiat, qudrat borligi ta’limoti ilgari surilgan.
<b>Apokalipsis (Vahiyнома)</b>	“Yangi Ahd”ning tarkibiy qismi bo‘lib, uni “Injil” mualliflaridan biri Ioann ilohiy ilhom orqali yozgan, deb e’tiqod qilinadi. Ushbu kitobda qiyomat va Isoning ikkinchi qaytishi bilan bog‘liq hodisalar bayon qilingan.
<b>Apostol</b>	xristian ta’limotiga binoan Isoning eng yaqin yordamchilarining unvoni. Ularning asosiylari 12 ta: Pyotr (Simon Ionin), Andrey, Ioann, Iakov Zevedeev, Filipp, Varfolomey, Matfey, Foma, Iakov Alfeev, Faddey, Simon Kananit, Iuda Iskariot (Isoni sotgan havoriy), Matfiy (Iudadan so‘ng uning o‘rnini egallagan). Bulardan tashqari yana 70 nafar havoriylar mavjud bo‘lgani xristian adabiyotlarida qayd etiladi.
<b>Arafot</b>	(arab. «tanimoq, bilmoq» fe’lidan) Makka

	<p>shahrining sharq tomonidagi tepalik. Rivoyatlarga ko‘ra, jannatdan tushirilgan Odam Ato va Momo Havvo erda ilk bor mana shu tepalikda uchrashganlar. Shuning uchun ham uni «Arafot» – «Tanishuv» deb ataganlar. Haj mavsumida barcha hojilar qurbon hayitidan oldingi kun tongdan kun qaytgunga qadar shu tepalik atrofidagi maydonda turishlari farz. Shu sababli hayitdan oldingi kun «arafa kuni» deb ataladi.</p>
<b>Bibliya</b>	<p>– yahudiylik va xristianlik dinlarining asosiy muqaddas manbai. Yahudiylar “Bibliya”si “Kitve kadesh” va “Tanax” ham deb nomlanadi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan Bibliya “Qadimgi Ahd” va “Yangi Ahd”dan iborat bo‘lib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.</p>
<b>Din</b>	<p>insoniyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismidir. Din insonni qurshab olgan atrof muhitdan tashqarida bo‘lgan va koinotdagi barcha narsalarni yaratgan ayni zamonda insonlarga to‘g‘ri, haqiqiy, odil yo‘lni ko‘rsatadigan va o‘rgatadigan ilohiy borliqqa ishonch, maslak, qarash ta’limotidir.</p>
<b>Din psixologiyasi ning asosiy ob’ekti</b>	<p>dindorlarning dinga e’tiqod qilmaydigan kishilarning xulqi va harakatidan farq qiluvchi psixologik xususiyatlarini metodologik tamoyillar asosida tadqiq etishdir.</p>
<b>Diniy psixologiya</b>	<p>bu butun diniy ommaga xos tasavvurlar, sezgilar, kayfiyatlar, urf-odat, an’analar bilan bog‘liq muayyan diniy g‘oya tizimining umumbirligidan iborat.</p>
<b>Ibtidoiy faylasuf</b>	<p>evolyusion pozitivistlarning chiqargan xulosasiga ko‘ra, borliq va koinot haqida fikrlar yuritib, dinning kelib chiqishiga sababchi bo‘lgan ibtidoiy odam.</p>
<b>Indulgensiya</b>	<p>katolik cherkovi tomonidan dindorlarga qilingan yoki qilinishi mumkin bo‘lgan gunohlarni kechirish haqida beriladigan guvoohnoma. U pul yoki cherkov oldidagi xizmatlar evaziga beriladi.</p>

<p><b>Injil</b></p>	<p>(yunoncha - “Evangelië”) “Yangi Ahd”dagi Mark, Matto, Luqo va Yuhannolardan rivoyat qilingan kitoblar nazarda tutiladi. Ularda Iso Masihning hayot yo‘li va mo‘jizalari bayon qilingan. Islom dinida e‘tiqod qilinadigan yakka Xudo <i>Ollah</i> deb ataladi. Bu X. Makkada yashagan qad. Quraysh qabilasi Xudosi bo‘lib, Muhammad targ‘ibot bilan 7- asrlarda islom dini Xudosiga aylangan. Makkadagi qad. ibodatxona – Ka‘ba Baytulloh (Ollahning uyi) deb atalib, musulmonlarning bosh</p>
<p><b>Kardinallar kollegiyasi</b></p>	<p>Rim katolik cherkovidagi oliy kengash. Papa o‘rni bo‘shab qolganda uning vazifasini bajarish va yangi Papani saylash vazifalarini bajaradi.</p>
<p><b>Miro moyi</b> (yunoncha - “xushbo‘y moy”)</p>	<p>xristianlikning etti sirli marosimlaridan birida tanaga suriladigan xushbo‘y moy. Ushbu moy cherkov episkopi tomonidan oliy navli zaytun moyiga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari, muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi maxsulotlarni qo‘shib qaynatish orqali tayyorlanadi.</p>
<p><b>Tabu –</b></p>	<p>totemistik tasavvurlar mavjud bo‘lgan jamiyatdagi diniy taqiq. Bu tasavvurlarga ko‘ra, tabuni buzgan odam ruhlar va xudolar tomonidan unga og‘ir kasallik yoki o‘lim yuborish bilan jazolanadi. Tabu ma‘lum bir buyumga tegmaslik, ma‘lum so‘zni aytmaslik, ma‘lum hayvonlarning go‘shini emaslik kabilardan iborat bo‘lishi mumkin.</p>
<p><b>Yuhanno</b> (Ioan)</p>	<p>Isoning 12 havoriylaridan va “Injil”ning mualliflaridan biri. Xristianlikka ko‘ra, Yuhanno “Yangi Ahd” tarkibiga kiruvchi “Vahiynoma” kitobining muallifi hamdir.</p>

## VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza.

2016-yil 7-dekabr. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.

3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish

tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi

nutq. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.

4. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi - Prezidentining Farmoni. – Xalq so‘zi, 8-fevral 2017-yil.

5. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat engilmas kuch. –T.:Ma’naviyat, 2008.

6. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B. 415-683.

7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q // Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T. 7. – T.: O‘zbekiston, – 1999. – B. 132-154.

8. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga javoblar // Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T. 7. – T.: O‘zbekiston, – 1999. – B. 84-102.

9. Karimov I.A. Alloh qalbimizda, yuragimizda. «Turkiston press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar // Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T. 7. – T.: O‘zbekiston, 1999. – B. 349-355.

10. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda: Prezident Islom Karimovning Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o‘n to‘rtinchi sessiyasidagi ma’ruzasi. 1999 yil 14 aprel. – T.:

O‘zbekiston, 1999. – 48 b.

11. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – T.: O‘zbekiston, 2000. – 526 b.

12. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – T. 10. –T.: O‘zbekiston, 2002. – 429 b.

13. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. – T. 11. – T.: O‘zbekiston, 2003. – 318 b.

14. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o‘z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog‘liq. – T.: O‘zbekiston, 2004. – 30 b.

15. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi.

– T.: O‘zbekiston, 2005. – 158 b.

16. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar**

17. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.– T.: O‘zbekiston, 2017.

18. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) // O‘zbekistonning yangi qonunlari, № 19. –T.: Adolat, 1998.

### **Sh. Maxsus adabiyotlar**

19. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jomi’ as-sahih (ishonarli to‘plam): 4 jildli. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1999.

20. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy: 2 jildli. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

21. Avesto “Videvdat” kitobi / M.M.Is’hoqov tarjimasi. – T.: ToshDShI nashriyoti. – 96 b.

22. Avesto “Yasht” kitobi / M.Is’hoqov tarjimasi. – T.: Sharq, 2001. – 124 b.

23. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 432 b.

24. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – T.: Alisher Navoiy nomli milliy kutubxona nashriyoti, 2007. – 275 b.

25. Beruniy Abu Rayhon. Qonuni Mas'udiy // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. V tom. Birinchi kitob. – T., 1973. – 590 b.
26. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. – T., 1968. – 486 b.
27. Bosvort K. Musulmon sulolalari. Yilnoma va shajaralar bo'yicha ma'lumotnoma. Izohlar bilan tarjimai. – T.: FAN, 2007. – 270 b.
28. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari: o'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir A.S.Ochildiev; – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. – B. 246.
29. «Dinshunoslikning dolzarb muammolari» mavzuidagi 1-ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – T. «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.
30. «Dinshunoslikning dolzarb muammolari» mavzuidagi 2-ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – T. «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.

### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. Infocom.uz elektron jurnali: [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz)
4. [www.nuuz.uz](http://www.nuuz.uz)
5. [www.bimm.uz69](http://www.bimm.uz69)